

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING
HOLATI VA RIVOJLANISHI” mavzusini o'qitish metodikasi” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 4-kurs talabasi Saidov H

Navoiy 2014

Mundarija

KIRISH	3
---------------------	----------

I BOB O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING HOLATI VA RIVOJLANISHI.....5

<i>1.1 Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro va mamlakatimizdagi olib borilayotgan ishlar</i>	<i>5</i>
<i>1.2 Ekologik xavsizlikni ta'minlashga doir ta'lim sohasidagi vazifalar</i>	<i>8</i>
<i>1.3 Ekologik madaniyat.....</i>	<i>13</i>
<i>1.4. Ekologik ta'lim barqaror taraqqiyot garovi.....</i>	<i>24</i>

II BOB O'rta Osiyo Mintaqasidagi Ekologik Holat..... 43

<i>2.1 Ekologik xavsizlik ko'rsatkichlari.....</i>	<i>43</i>
<i>2.2 Ekologiya tanazzulini yengib o'tish muammolari.....</i>	<i>44</i>
<i>2.3 O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit bo'yicha xalqaro axborot tizimi.....</i>	<i>53</i>
<i>2.4 Orolning ekologik muammolari.....</i>	<i>56</i>

III BOB ilmiy kashfiyotlarning barqaror rivojlanish va ekologik xavsizlikdagi ahamiyati.....59

<i>3.1 Ilmiy kashfiyotlar barqaror taraqqiyot yo'lida.....</i>	<i>59</i>
<i>3.2 Ekologik muammolarning yechimi yo'lidagi ilmiy izlanishlar.....</i>	<i>61</i>

Xulosa.....	65
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar.....	66
---------------------------------------	-----------

KIRISH

Insoniyatning barqaror rivojlanishlari harakati oxir-pirovardida aql-idrok sohasi (noosfera) ning shakllanishiga olib keladi, tabiat bilan uyg'unlikda yashaydigan insonning manaviy qadriyatlari va bilimlari milliy hamda individual boylikning asosiy meyorlari bo'lib qoladi.

Mavzuning dolzarbligi: Barqaror rivojlanish inson va jamiyat hayotini tashkil etishning yangi modasi bo'lib, biosferada yuzaga kelgan ekologik vaziyat muammolarini kishilik jamiyatining barcha jihatlari bilan har tomonlama xal etish kerakligining yangi yo'llarini izlashga olib kelmoqda. Barqaror rivojlanish uchun jamiyat kishilari ongli ravishda ekologik vazifalarni har kuni, har bir bosqichda amalga oshirishni talab qiladi, ya'ni yaratilgan texnologiya muhitga o'zining ijobiy ta'sir etishi yoki unga salbiy ta'sir etmasligi kerak, shundagina insonlar bexavotir yashaydilar, mehnat qiladilar.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining mohiyatini asosiy rivoji shunday bo'lmog'i kerakki, bu rivojlanish oqibatida tabiiy muxit yemirilmasligi kerak. Barqaror rivojlanish uchun turli mamlakatlar va xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik rivojida xilma-xillik va rang-baranglik bo'lmog'i lozim.

Ekologik tanazzul xududlarida atrof-muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha dasturlarini ishlab chiqish va asta-sekin xolati nochor xududlarda sharoit sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar belgilash va bu tadbirlarni amalga oshirishning tashkiliy asoslarini barpo etish ko'zda tutilmokda. Bu yana shuning uchun ham muhimki, ekologik jixatdan xavf-xatar tug'ilib qolishi mumkin bo'lgan darajaning eng so'nggi nuqtasiga yetib bordi. Mamlakatda ichidayotgan suvning faqat bir foizgina birinchi toifadagi sifat talabiga javob beradi, uning 17 foizi esa hatto eng past darajaga - uchinchi toifa sifat darajasiga ham mos kelmaydi.

Mamlakat hududida ekologik osoyishtalikka erishish, birinchi navbatda, tabiat imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga taminlanadi va unga jon boshiga sarflanadigan nisbiy harajatlarni kamaytirish evaziga erishiladi. Undan keyin butun jahon hamjamiyatining tabiat bilan o'zaro aloqasini uyg'unlashtirishga asta-sekin o'ta

borish nazarda tutiladi.

Dunyodagi barcha davlatlar shunaqa modelni qabul qilsa va quyidagi prinsiplarga og'ishmay amal qilsagina, sayyorada barqaror rivojlanish maydonga kelishi mumkin:

Yerni yemirish hisobiga moddiy boyliklarni son-sanoqsiz miqdorda jamg'arishdan nafsni tiygan xolda, faqat eng zaruriy miqdordagina moddiy boyliklarga erishmoq lozim (noosfera prinsipining birlamchi qadami):

Biosfera barqaror xolatga qaytarish:

Ishlab chiqarish va istemolning yangi ijtimoiy-iqtisodiy modeliga o'tish:

Yer axolisining miqdorini barqarorlashtirish (oilada ikkitadan ortiq farzand bo'lmasligi lozim):

Hozircha inson qo'li tegib ulgurmagan tabiatning hamma qismiga qo'riqxonaga maqomi berish:

Tabiat boyliklaridan tejamkorlik va samaradorlik bilan foydalanish:

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi – barqaror rivojlanishning ekologik jihatida o'z ichiga quyidagilarni oladi: hozirgi va kelgusi avlodlar uchun shunday real imkoniyatlarni saqlab qolmoq kerakki, ular bu imkoniyatlar yorlamida o'zlarining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olsinlar: ekologik xavfsizlikni ta'minlash, kam chiqindili ishlab chiqarishni rivojlantirish, yopik sikl bo'yicha chiqindisiz texnologiyalarga o'tish, biotexnikaning yangi manbalaridan foydalanishga o'tish, tabiatni asrashning ma'muriy, iqtisodiy va huquqiy usullarini mukammallashtirish, biologik xilma-xillikni saqlab qolish, ekologik-tarbiyaviy ishlarni ekologik-axloqiy kodeksni ishlab chiqish va uning talablariga rioya qilish. Shu talablardan kelib chiqqan holda mazkur BMI da ekologik xavfsizlikning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda uning yo'llari atroflicha o'rganish.

I BOB O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING HOLATI VA RIVOJLANISHI

1.1. Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro va mamlakatimizdagi olib borilayotgan ishlar

I.A.Karimov o'zining "O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida" "Havfsizlikka taxdid", "Barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" deb nomlangan asarida "Ekologik muammolarning yechimini topish: davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi" deb aytib o'tgan edi:

Shuni takidlamok kerakki, xalqaro hamjamiyat ekologik tanazzul xavfini XX asr 40-yillaridayoq anglay boshlagan edi. BMT o'zining birinchi ekologik tadbirini 1949 yilda o'tkazgan edi - o'shanda tabiatni asrash bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazilgan edi. Biroq BMT ning tabiatni himoya qilishga yo'naltirilgan faoliyatdagi burilish nuqtasi sifatida atrof-muxit muammolariga bag'ishlangan Stokgolm konferensiyasini (1972) xisoblash mumkin. AYNI shu konferensiya ekologiya muammolarining hamma jihatlariga kompleks yondashib xal qilishga asos soldi.

Stokgolm konferensiyasi ko'pgina davlatlarning ichki siyosatiga ham ekologik dasturlari ishlab chiqila boshlandi, ularni amalga oshirish mexanizmlari yaratila boshlandi. shu bilan birga atrof muhit muammosiga yondashishida yakdillilik va bir xillik yo'q edi. Har qaysi davlat ularni o'zicha xal qilishga, xal qilganda ham, muammoning biror jihatigagina etibor berib xal qilishga intilardi. Biroq eng asosiysi - aniq-ravshan, puxta uylangan mafkuraning yo'qligi edi. Bunday mafkura davlatlarning hamma xatti-harakatlari bir o'zanga yunaltirishga imkon berardi va shu asosda jahon jamoatchiligini insoniyatning global muammolarini xal qilishga yo'llash mumkin edi. Nazariy konsepsiya sifatida u 80-yillarning oxiriga kelib shakllandi va o'sha kezlari dayoq "barqaror rivojlanish" degan nomni oldi. Birinchi marta bu tushunchani 1987 yilda tevarak muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro Komissiya muomalaga kiritgan edi. 1992 yilda Rio-de-Jeneyroda BMT ning tevarak muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida 179 davlatdan kelgan 8 ming delegat Barqaror rivojlanish konsepsiyasini bir ovozdan maqulladi. Bu xujjat bugungi kunda jahon hamjamiyati

tomonidan insoniyatning XXI asrdagi rivojlanishining bosh yo'li sifatida qaralmoqda.

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (1992 y.):

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 20 oktabrdagi 469-sonli " 1999-2005 Ishlarda O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar dasturi":

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim va Xalq Ta'limi Vazirliklarining noyabr 2005 yildagi 242/33/79-sonli qo'shma qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limning rivojlantirish, ekologik kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda malaka oshirish tizimini takomillashtirish istiqbollari) Dasturi (2006-2010 yil) va Konsepsiyasi.

O'zbekiston da Barqaror Rivojlanish uchun ta'limning komponentlari quyida ko'rsatilgan milliy strategik xujjatlarda aks toptan:

1. 2000-2006 yillar uchun ozon yemiruchi moddalar ishlatilishini to'xtatish bo'yicha Milliy Dasturi (Vazirlar Maxkamasining 24.01.2000 y. 20-sonli qarori):

2. Parnik gazlarining emissiyasini pasaytiruchi harakatlar Milliy Strategiyasi va rejasi (Vazirlar Maxkamasining 9.10.2000 y. 389-sonli qarori):

3. Cho'llanish bilan kurash bo'yicha harakatlar Milliy Rejasi (2000y.)

4. Biologik xilma xilligini saqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy Strategiyasi va harakatlar rejasi (Vazirlar Maxkamasining 1.04.1998 y. 139-sonli qarori):

5. 2004-2010 yillar uchun respublikada xayot darajasini yaxshilash va kambag'allikni kamaytirish Milliy Strategiyasi:

6. Tuberkuilyoz kasalligini profilaktikasi va kamaytirish bo'yicha Strategik dasturi:

7. YUNESKO ko'makligida amalga oshirilayotgan «Ta'lim hamma uchun» Dasturi (2003-2015 yil.) bo'yicha Milliy harakatlar rejasi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim bo'yicha davlat isloxotining asosiy maqsadlari bayon etilgan. Unda qayta tashkil etishdan tashqari o'quv dasturlarini qayta ko'rish, yangi darsliklar tayyorlash: o'qitish uslublarini modernizatsiyalash, kompyuterlash va ta'lim tizimidagi hammaboplik va tenglik darajasini saqlash ko'zda to'tilgan. Hozirda formal ta'limning o'quv reja, dastur va standartlarida barqaror rivojlanish uchun ta'lim (BRT)ning komponenti sifatida faqat ekologik ta'lim (ET)ni qo'llayotgan ta'lim strategiyalari aks ettirilgan. «O'zbekiston Respublikasi 1999-2005 yillarda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar Dasturi»ning (Vazirlar Maxkamasining 20.10.1999 y. dagi 469-sonli qarori) 2.15 punktiga ko'ra ekologik ta'lim bo'yicha ishlab chiqilgan davlat standarti ayrim bazaviy maktablarda baxo berish (aprobatsiya)da bo'lmoqda. Bu maktablarda ET mavzulari dars dasturlariga yiliga 34 soatdan kiritildi, bu darslarni o'tkazish dasturlarni ishlab chiqildi. 1-2-sinflarda «Atrofimizdagi dunyo». 3-4-sinflarda - «Tabiatshutzoslik». Yuqori sinflarda ekologik mavzular botanika, biologiya, kimyo, geografiya va boshqa fanlarga integratsiyalangan. 5-9-sinf o'quvchilari uchun «Tabiat rangbarangligi». «Inson va yer». «Inson va xavo». «Suv -xayot manbai» o'quv qo'llanmalari ishlab chiqildi. 1-4-sinf o'quvchilar uchun «Boshlang'ich maktabda ekologik tarbiya va ta'lim». 5-9-sinf o'quvchilariga esa - «Inson va tabiat» uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi.

Respublika o'rta maktablarining ko'pchiligila ekologiya, atrof muxit muhofazasi bo'yicha maxsus fanlar yo'q, bu mavzularni fakultativ komponent sifatida yoki mavjud o'quv fanlarga (biologiya, kimyo, botanika, zoologiya va boshqalar) integratsiya yo'li bilan o'qitilmoqda.

Mamlakatimizda BRT masalalarini joriy qilishiga baxo berish (aprobatsiya) xalqaro loyixalar orqali bo'lib o'tdi:

1. G'arbiy Tyan-Shan Bioxilma-xilligini saqlash bo'yicha transchegaraviy loyixa (2000-2006 y.). GEF (Global ekologik fondi) Jahon banki.

2. «O'zbekiston da Bioxilma-xilligini saqlash uchun modeli sifatida Nurota-Qizilqum biosferaviy rezervatini tashkil qilish»

(2001-2006 y.). GEF/BMTRD.

3. «Sog'liqni targ'ibot qilish bo'yicha maktablarning Yevropa tarmog'i». SJT Jahon banki.

4. Tabiatda o'qitish bo'yicha Kengash ko'makligida «Xayot uchun ta'lim» loyihasi (Buyukbritaniya).

5. «Global ekologik konvensiyalarni bajarish bo'yicha davlat potensialini milliy o'z o'ziga baho berish» DEF\BMTRD loyihasi.

O'zbekiston Respublikasi submintaqaviy loyixalarni amalga oshirishda faol qatnashdi:

1. 2004-2006 y. Markaziy Osiyo Mintaqasining atrof muhit bo'yicha markazi Buyukbritaniya xukumatining moddiy yordamida Almata shahrida «Tabiatda o'qitish bo'yicha Kengash» va «Iqlim xaqida g'amxo'rlik» Britaniya tashkilotlari va «ShIPRE» Norvegiya dasturi «Markaziy Osiyoda iqlimiy o'zgarishi va BRT bo'yicha plakatlar va vidio» loyihasi amalga oshirildi. Bu loyixa natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va Xalq Ta'limi Vazirligining yaqin hamkorligida BRT bo'yicha 2 ta seminar o'tkazildi: 1. Toshkent shahrida «Ekomaktab» tomonidan va 2. Fargona shahrida «Ekologik sof Fargona uchun» assotsiatsiyasi tomonidan.

2. 2005 yilda Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi tomonidan ishlab chiqilgan «Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanish uchun Ta'lim bo'yicha BMT o'n yilligini amalga oshirish (2005-2014 yy.)» loyihasi. Almata shahrida YuNESKOning klaster fondi ko'makligida va Markaziy Osiyoda BRT bo'yicha BMT o'n yilligini amalga oshirishning boshlanishiga bag'ishlangan.

1.2 Ekologik xavsizlikni ta'minlashga doir ta'lim sohasidagi vazifalar

Hozirgi kunla BRT strategiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi tanlangan vazifalari quyidagilar:

1-vazifa. ET va BRTni qo'llash Respublika Markazini tashkil etish. o'ning vazifasi - uzluksiz ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish uchun ta'lim konsepsiiya va dasturini amalga oshirish, ig'or tajribani targ'ibot qilish.

Markazning maqsadi uzluksiz ekologik ta'lim va BRT tizimining samarali amalga oshirish va rivojlanish uchun ta'lim, tabiatni muhofaza qilish tuzilmalar va mamlakat NNT (nodavlat nokommersiyali tashkilot) vakillari harakatlarini muvofiqlash va tashkiliy, ilmiy-tadqiqot va tajriba-eksperimental ishlarining strategik yo'nalishlarini aniqlash.

2-vazifa. ET va BRT tizimini yaratish. Birinchi bosqichda viloyat, shahar, tumanlarda ET va BRTning tayanch markazlarini tashkil qilish, sung ta'lim tuzilishida, muassasa va korxonalarda tizim tuzilmalarni tashkil qilish. Tizim yaratish maqsadi -bevosita amaliy faoliyatini tashkil qilish uchun shart-sharoit xozirlash va hamma manfaatdor (Xalq ta'limi Vazirligi, va UMT Vazirligi, TMK Davlat qo'mitasi, NNT va xalqaro tashkilotlar) tomonlari uchun umumiy axborot maydonini tashkil qilish.

3-vazifa. OO'Yu, maktablar uchun darslik, uslubiy adabiyotlar, ko'rsatma hamda o'quv qo'llanmalar va boshqa adabiyotlarni, ayniqsa davlat davlat tayyorlash va nashr etish. Bu vazifani amalga oshirish uchun va aholi keng katlamlarining xabardorligini oshirish uchun TMK Davlat qo'mitasi O'zbekiston da BMTRD (PROON) vakolatxonasi yordami bilan faqat 2000 yilda «Chinor» Ekologik nashriyot kompaniyasida quyidagi kitoblar nashrdan chiqdi: «O'zbekiston Respublikasi qizil Kitobi» (2-tomli). o'zbek, rus va ingliz tillarida «O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit xolati va tabiiy resurslardan foydalanish haqida Milliy ma'ruza». «G'arbiy Tyan-Shan lolalari». «Ekologik ensiklopediya».

«O'zbekistondagi qo'riqlanadigan tabiiy xududlari» fotoalbomi. «Sarmishsoy». «Husor qo'riqxonasi». «Jayron ekomarkazi» bukletlari va 12 ta turdagi plakatlar. Bundan tashqari o'zbek va rus davlat boshlang'ich maktab o'qituvchilari uchun «Boshlanig'ich maktabda ekologik tarbiya va ta'lim» nomli o'quv qo'llanma nashrdan chiqarildi.

4-vazifa. ET va BRT bo'yicha veb-sayt yaratilishi va ishlab turishi. BR masalalari. ET va BRTni yorituvchi ekologik teleko'rsatuvlar. Videokliplar tayyorlash. Hozirgi paytda bu vazifani [www. Yesopeshz. ix.](http://www.Yesopeshz.ix), sayti muvafaqqiyatli bajarmokda.

5-vazifa. Norasmiy ETni tashkil etish jarayoniga NNT keng jalb qilish, o'qituvchilar tarkibiyi tayyorlash va qayta tayyorlash. axborot va tajriba almashishiga ko'maklash. Hozirgi paytda NNT ET va BRTning umumiy rivojlanishida o'z o'rnini topdi.

6-vazifa. BRT bo'yicha DTSini tayyorlash. Hozirda o'qituvchilar tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlariga BRT komponentlaridan asosan ET. ta'lim sifatini oshirish, sog'liqni yaxshilash, tender tengligi masalalari kiritilgan. Rasmiy ta'limning reja, dastur va standartlarida faqat ET quvvatlaydigan ta'lim strategiyalari aks topgan. Shuning uchun BRT komponentlarining butun kompleksini bu dastur reja va standartlarga kiritish jiddiy vazifa bo'lib turibti.

7-vazifa. BRT va yuqorida ko'rsatilgan vazifalar bo'yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun mablag' topish.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi ekologik ta'lim-tarbiyaga katta etibor bermoqda. 2005-2014 yillarga muljallangan BMTning BRT 10-yilligiga muvofiq Davlatqo'm va Xalq Ta'limi Vazirliklari tomonidan ekologik ta'lim tizimni rivojlantirish hamda Respublikada ekologik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha mukammallashtirish istiqbol larining Dasturi va Konsepsiyasi haqida uchtomonlama qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi hamda Xalq Ta'lim Vazirligi Barqaror rivojlanish uchun ta'lim strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ijroiya agentliklari etib tayniladilar.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi respublikada uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya tizimini yaratish bo'yicha malum ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 20.10.1999 yildagi 469-sonli qarori 2.15 va 2.16 punktlari bilan Xalq ta'limi vazirligi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan "ekologik ta'lim davlat standart". "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi"ni shilab chiqilgan. Ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish esa O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan.

Xalq ta'limi vazirligi 45-sonli, hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

7/5 sonli qo'shma xay'at yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasininig 20.10 1999 yil 469-sonli "O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar Dasturi" qarorining 2.15 va 2.16 punktlarini bajarilishi masalasi qurib chiqildi.

Qo'shma xay'at yig'ilishi natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi, bu qarorda ta'limning ushbu yo'nalishi bizning mamlakatimiz uchun ustuvor ekanligi yuqorida qayd etildi, nomlari ko'rsatib o'tilgan vazirliklar tomonidan "Ekologik ta'lim davlat standarti" va "Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi" ishlab chiqilganligi va ular vakillari bilan uzluksiz ekologik ta'lim tizimini yaratish masalalari bo'yicha seminar o'tkazish zarurligiga, umumta'lim maktablari, litseylar va kollejlari uchun o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

2002 va 2004 yillar davomida qo'shma xay'at yig'ilishi Qarorini bajara borib Davtabiatqo'm O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bilan birgalikda ekologik ta'lim bo'yicha ikkita seminar o'tkazdilar. Turli sinf o'quvchilari uchun ekologik ta'limni tashkil etish bo'yicha o'nta tavsiyalar tayyorlandi, ekologiya bo'yicha tularaqlar uchun sakkizta dasturlar ishlab chiqildi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan darsliklar, amaliy qo'llanmalar va o'qituvchilarga yordam uchun tavsiyalar ishlab chiqildi. Maktab ta'limi boshqa fanlariga yordamchi sifatida "Ekologiya" fanini o'qitish bo'yicha tavsiyalar, dasturlar ham ishlab chiqildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tabiatni muhofaza qilish zamonaviy qonunchiligini xisobga olib o'quv dasturlarni, amaliy qo'llanmalar ishlab chiqildi va barcha o'quv muassasalariga yetkazildi. Bugungi kunda barcha oliy va o'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalarida "Ekologiya" va "Atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari" o'qitiladi. Respublika bo'yicha har yilda oliy o'quv yurtlari o'rtacha 310 ta mutaxassis-ekologlarni tayyorlaydilar. Har yili mamlakatimiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari vakillari o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti bulajak ekolog talabalar bitiruv ishlarini tayyorlashni tashkil etish va o'tkazish to'g'risida Davtabiatko'mga murojaat etadilar.

Xalqaro hamkorlik doirasida O'zbekiston Respublikasi Davtabiatqo'm tomonidan Atmata shahri mintaqaviy ekologik markazi tomonidan 2002 yilda nashr etilgan "Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekologik ta'lim xolati, istiqbollari va rivojlantirish yo'llari" maqolasining "Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekologik ta'limi" to'plami uchun O'zbekistonga tegishli qismni tayyorlaydi.

2004 yil 4 iyulda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasida BMTTD va YeXXT bilan hamkorlikda Axborot markazi ochildi. Axborot markazining asosiy vazifasi respublika jamoatchiligi, ommaviy axborot vositalari, o'quvchi yoshlari bilan aloqalarni kengaytirish xisoblanadi. Markaz konferensiya zalidan va kutubxonadan iborat bo'lib, bu yerda Hozirgi kunda seminarlar, anjumanlar, treninglar o'tkazilib borilmokda. Kutubxonada O'zbekiston Respublikasida atrof-muxit xolati to'g'risidagi barcha mavjud adabiyotlar va axborotlar, konunchilik va me'yoriy xujjatlar to'plangan.

2002 yilda O'zbekiston Respublikasi Davtabiatqo'm tomonidan viloyat qo'mitalari uchun "Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar" ishlab chiqdi. Ushbu xujjat ilmiy-texnik kengashining yig'ilishida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Tabiatni muhofaza qilish barcha viloyat qo'mitalari ushbu tavsiyalarni o'z faoliyatlari uchun dasturamal deb biladilar.

O'zbekiston Respublikasi Davtabiatqo'm O'zbekiston teleradiokompaniyasi yordamida birinchi kanalda mamlakatimiz ekologik muammolariga bag'ishlangan har oylik "Odam va olam" teleko'rsatuvini tashkil qildi.

"Axborot". "Davr" va "Poytaxt" kabi televideniya axborot dasturlari bilan ham aloqalar yo'lga qo'yildi, bu dasturlarda ko'mita tomonidan tashkil etilgan seminarlar, taqdimot marosimlari va konferensiyalar yoritib boriladi. Qo'mitaning hayvonlar va o'simliklar dunyosini muhofaza qilish bo'yicha boshqarmasi tashkil etadigan reydlar ham ushbu axborot dasturlarida keng yoritiladi, bu dasturlarda balik urchish davri - baliq ovlash taqiqlangan davrda baliq ovlovchi, qonunga xilof ravshda daraxt kesuvchi brakonerlarni qo'lga olinganligi to'g'risida xikoya qilinadi. "Do'stlik". "Mash'al" radiokanallarida va yaqin paytdan beri "Yoshlar"

radiokanalida va "Poytaxt" xususiy radiokanalida har oyda "Inson va tabiat". "Yoshlar tabiatni muhofaza qilishda" "Ekologik yangiliklar" va boshqa radioeshittirishlar tashkil etildi. "Xalq so'zi". "Nardnoye slovo". "O'zbekiston ovozi". "Pravda Vostoka". "Moxiyat" gazetalari jurnalistlari bilan yaxshi aloqalar o'rnatilgan. "Pravda Vostoka" gazetasi bilan O'zbekiston Respublikasi Davtabiatqo'm o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandum imzoladilar. Bundan tashqari "Pravda Vostoka" gazetasi bilan hamkorlikda 2003 yilda ikkita seminar-treningi tashkil etildi va o'tkazildi, 2004 yilda esa ekologik mavzuda yozuvchi jurnalistlar uchun oltita seminar-treninglar tashkil etildi va o'tkazildi.

Seminar davomida jurnalistlarning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qoshidagi Uzgidromet Davtabiatqo'm, Respublika So'g'liqni saqlash vazirligi mutaxassislari bilan uchrashuvlari tashkil etildi.

Seminar-treninglar natijalarn jurnalistlar nashr etadigan materiallarning malakali, dolzarb va keskin bo'lishiga ijobiy tasir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi Davtabiatqo'm "Chinor ENK" ekologik nashriyot kompaniyasining ta'sischi xisoblanadi. 2003-2004 yillarda uning safiga iqtidorli yoshlar jalb qilinishi bilan nashriyot faoliyatida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. "Ekologiya xabariomasi" - "Ekologicheskiy vestnik" jurnali muntazam nashr etila boshlandi, nashriyot mavzulari kengaydi - ko'rkam plakatlar, broshyuralar paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo mintaqasida Birinchi bo'lib 2003 yilda mutaxassislarga yordam sifatida "Tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha so'zlar va terminlar rus-o'zbek o'quv-uslubiy izohli lug'ati" va 2004 yilda "O'zbekcha-ruscha-inglizcha ekologik izohli lug'ati" nashr etildi. Lug'atlar adadi ko'p bo'lishiga qaramay, kamyob qo'llanma xisoblanadi.

1.3 Ekologik madaniyat

Biosfera tanazzulini to'xtatishining va uni keyingi tiklanishining asosiy omili kelajak avlodimizda ekologik madaniyatni shakllantirish, shu qatorda ekologik ta'lim (hamda ekologik tarbiya), axoliga ekologik ong-bilim berish xisoblanadi.

Ekologiya va madaniyat juda keng qamrovli tushunchalardir. Madaniyat ekologiyaga va aksincha, ekologiya madaniyatga turli soxalarda tasir ko'rsatadi. Bu tushunchalar uchun umumiy bo'lgan manbalar ham xilma-xildir.

Faqat madaniyatli kishigina tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirini oqilona yo'lga quyishga intiladi. Bu boradagi faoliyatini ham uning madaniyati belgilab beradi. Madaniyat odamlarni bilimli qilishga, ularga ish tartib-qoidalarini o'rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va faini ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.

Texnikani ekologiyalashtirishning moxiyati zararli aralashmalarni xavoga juda kam chiqaradigan dvigatellar yaratish (axir, xavoning zararli moddlar bilan ifloslanishi tufayli ko'pgina o'simliklarning ildizi qurib qolishi, barglarning sarg'ayib, qavjirashi, binobarin, xayot uchun zarur bo'lgan kislorod ishlab chiqarish xususiyati butunlay yuqolishi yoki pasayishi barchaga ayon-ku!); daryo va dengiz kemalari tirkishlaridan suvga neft, moy va yonilg'i oqishi extimolining oldini olish yoki tan bartaraf etish: tuproq katlamlariga (chuqur jarlik, dunglik va boshqa baland-pastliklar xosil qilmaydigan) zarar keltirmaydigan traktor, ekskavator va boshqa texnikalar yaratishdan iborat. Bunday texnika loyxachi va yaratuvchilari (xolbuki ularning bir qismi bugungi kunda aynan kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishmoqdalar) uning asoslarini ishlab chiqishda tabiatning o'z o'zini qayta tiklash qobiliyatini xisobga olishlari kerak. Buning uchun esa yaratilajak loyixalarga tegishli injiner-texnik yechimlarni kiritish lozim bo'ladi.

Ekologik madaniyat quyidagilarni qamrab oladi: tabiatni muhofaza etish madaniyati. tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyatn. ekologik tizimini o'zgartirish madaniyatn. O'zida ekologik madaniyatni shakllantirgan inson bitta tuman miqyosida tabiatni muhofaza etish borasidagi g'amxo'rlik talan uzoqlardagi ekologik vaziyatga ham samarali ta'sir ko'rsatishini teran tushunadi. Tabiiy muhitdagi kamchiliklarni bartaraf etish - barcha miltat va xalqlarning ishidir. Ular faoliyatini bir maqsad yo'lida birlashtirish ekologik muammoni xal etishning muhim shartn xisoblanadi.

Tabiiy muhitini mu"xofaza etish va tiklash masalasi millionlab

odamlarning hamkorlikdagi ishlari tufanligina xal etilishn mumkin. Jamoaning hamkorligi odamlarning nafaqat tabiatni muhofaza etish va tiklashda ishida faol ishtirok etishlarini taminlaydi. balki tabiatga nisbatan befarq va ayniqsa. joxilona munosabatda bo'lish ga tokatsizlik uygotadn.

Sanoat va qishloq xo'jaligidagi ishtab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish (nntensifikatsilash) tabiatdan to'g'ri foydalanish talablari bilan uzviy bog'lanishi lozim. Ishlab chiqarish ta'limi soxasidagi mutaxassis yoki muxandis-pedagog tabiatdan oqilona foydalanish tartiblariga javob beruvchi texnikalar yaratishda va texnologik jarayonlarni ishlab chiqishda yoshlarning aloxida o'rni borligiga o'quvchilar e'tiborini jalb etishi zarur. Chunki vatanimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan rejalarini amalga oshirish borasida g'amxo'rlik qilish ularning zimmasidadir.

Biroq tabiatni muhofaza etish ishlarida, avval ta'kidlab o'tilganidek, ko'plab yo'l qo'yilgan xatolar va unga nisbatan ma'suliyatsizlik bilan yonlashuvlar mavjud.

O'zbekistonning har bir fuqarosi Orol fojeasini yoddan chiqarmasligi va unga o'xshash xodisalar boshqa joylarda takrorlanishiga aslo yo'l ko'ymasligi kerak. Malumki, bugungi kunda u o'zining noyobligini yo'qotdi. Sari Osiyodagi ekologik vaziyatni ham unchalik yaxshi deb bo'lmaydi.

Ayrim to'ralar, mamuriy-boshqaruv soxasida ishlayligan shaxslarda ekologik savodxonlikning yetishmasligi, ko'plab keng miqyosli loyixalarning tabiat va odamlar uchun keltiraligan oqibatlarini xaqida uylamaslikni istamaslik, ekologik madaniyat pastligi tabiat boyliklaridan foydalanishda xatolarga yo'l quyishga sabab bo'ladi. Bu bizning yirik kamchiliklarimizdandir. Axir biz kelguvsi avlodlarimizga faqat u yoki bu inshootlarnigina emas, balki ishlab chiqarishga munosabatlarimiz jarayonida orttirgan axloqiy sifatlarni, tabiat bilan o'zaro munosabat madaniyatini, kelajak uchun mas'uliyat xissini meros qilib qoldiramiz.

Ekologik madaniyat soxibi bo'lish - bu faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning gullab yashnashi, yanada yaxshilanishiga xissa qo'shish, unga beshafqatlarcha munosabatda bo'lganlarga qarshi kurashmoq ham demakdir. Hozirgi vaqtda Respublikamiz miqyosida xuddi ana shu yo'nalishda ish olib

boradigan "Tabiatni muhofaza etish" bo'yicha "Ekosan" xalqaro jamoatchilik tashkiloti to'zilan. Uning shiori "Tabiatga oqilona munosabatda bo'l!" Bu tashkilot faoliyati doirasida, shubxasiz. aholining ekologik ongini shakllantirish, ma'rifatini yuksaltirish va tabiatni muhofaza etish bo'yicha ishlar o'tkazilmoqda.

Umuman, madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu gap ekologik madaniyatga ham taalluqlidir. Odamlarning ekologik madaniyati xali unchalik darajada yuqori emas. Shu tufayli kishilarning ekologik xavf-xatarni tushunishishi ham Hozircha juda sekinlik bilan rivojlanmoqda. Bu xolat ijtimoiy ongda ham o'z aksini topmay qolmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 1992 yildagi "Tabiatni muhofaza etishni ko'chaytirish va tabiat boyliklaridan foydalanishni yaxshilash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar haqidagi qarorida tabiat haqidagi bilimlarni axoli o'rtasida ommalashtirishning katta ahamiyati borligi takidlanadi. Ekologik ma'rifatdan tashqari tarbiyalanuvchilarning faolligidan ham samarali foydalanish lozim. Bunday faollikni rivojlantirishda tuman yoki qishloq joylardagi kasb-hunar kollejlari qoshida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ta'lim muassasalari xududida o'rmonchilikni yo'lga ko'yish katta o'rin tutadi. Hozirgi vaqtda Respublikamizdagi ayrim kasb-hunar kollejlarida bunday ishlar juda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

O'g'rincha ovchilik jamiyatimiz, ayniqsa, qo'riqlanayotgan tabiat uchun katta zarardir. Ayrim Kishilar boylik orttirish maqsadida ko'l va daryolarda dinamit portlatib baliqlarni o'ldiradi, qo'riqxonalaridagi hayvonlar ni jaroxatlaydi, otib ov qiladi va xokazo. Shuningdek, suv qurilmalarini loyixalashda uning atrof-muhitga qanday tasir etishini uylamaslik, rejani bajarish va maxsulot tannarxini pasaytirish hisobiga tabiat boyliklarini talon-taroj qilish va tabiatni ifloslantirish xollari uchrab turadi. Albatta, faqat foyda olish uchun tabiatga zarar keltirishni oqlab bo'lmaydi.

Har bir xo'jasizlik ortida masul shaxslar bo'lib, ular suv, xavo, tuproq, o'rmon, atrof-muhitning xolati haqida emas, ko'proq o'z xuzur-xalovatini, o'z foydasini ko'proq o'ylaydi. Bunday insonni kelgusi avlodlar baxt-saodati

qiziqitirmaydi. Ularning tabiat yemirilib ketgani bilan necha po'llik ishi bor, o'ziga yaxshi bo'lsa bo'ldi-da! To'g'rirog'i, ularda ekologik madaniyat yo'q. Aynan shuning uchun ham, nafaqat xo'jalik yuritish va tabiatga g'amxo'rona munosabatda bo'lish qoidalarini bo'zgan shaxslarga nisbatan ma'muriy va xuquqiy ta'sir o'tkazish, balki keng aholi orasida xususan. kasb-hunar kollejlari o'quvchilari - bo'lajak ishchilar, mutaxassislar orasida ham ekologik bilimlarni tashviqot targ'ibot qilish kerak.

Inson uchun tabiat nafaqat yashash muhiti sifatida qadrli, balki xissiy, estetik xuzur-xalovat manbai hamdir. Shu boisdan o'quvchilarga faqat tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish asoslarini o'rgatish bilangina ularda ekologik madaniyatni tarbiyalab bo'lmaydi. O'quvchilarni tabiatdan oqilona foydalanishga, ma'naviy-madaini boylik yaratishga o'rgatish, shuningdek, ularga tabiat faqat foyda olish uchungina emas, balki go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirilishini tushuntirish axloqiy talablarga to'la muvofiq keladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida quyidagi tartiblarga amal qilishni tavsiya etamiz.

Birinchidan o'quvchilarning xissiyotiga ta'sir etish, ular qalbida yoshlik chog'laridanoq tabiatga muxabbat uyg'otish kerak. Bu tarbiya qanchalik erta boshlansa va rivojlantirilsa, u shunchalik yaxshi samara beradi.

Ikkinchidan, o'quvchilar ongida tabiatni muhofaza etish va u bilan oqilona o'zaro ta'sir masalalarida faol hayotiy nuqtai nazarni shakllantirish. U ni insonning axloqiy etik saviyasi darajasi tarzida tavsiflash mumkin. Jamiyatning har bir a'zosi, bizning xozirgi kunlarimizda ham, uning tabiiy muxit xolatiga bog'liqligi kamayish o'rniga tobora ortib borayotganini anglashi zarur. Demak, har bir inson tabiat xolati uchun mas'uldir. Ilmiy-texnika taraqqiyoti uchun, ayniqsa, uning yutuklaridan amaliy maqsadlarda foydalanish uchun masul bo'lgan shaxslar oldida ob'ektiv talablar turibdi. Ular tabiatning nozik jixatlarini xisobga olishi, uning mustaxkamlik "chegarasi "dan o'tib ketilishiga yo'l kuymasligi, o'ziga xos murakkab va o'zaro bog'liq xodisalar moxiyatini teranroq anglashi, qaytmas jarayonlarni keltirib chiqarmaslik uchun tabiiy qonunlarga zid ishlar qilmasligi

kerak.

Uchinchidan. ekologik madaniyatni yuksaltirish ekologik ta'lim olishni uzluksiz davom ettirishni taqazo etadi. Kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilari mustaqil kasbiy faoliyati jarayonida ijtimoiy, tabiiy va texnikaviy fanlarni ham o'rganib borishlari lozim bo'ladi. Olingan bilimlarni kelguvsida boyitish va rivojlantirish esa, mustaqil ishlashni talab etadi. Shuningdek, bunda korxona va tashkilotlarda ekologik yo'nalishda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ham katta yordam beradi.

Ekologik madaniyatni shakllantirish hozirgi vaqtda shakllanayotgan yangi fan-ijtimoiy ekologiya qonunlarini qamrab olgan ilmiy ijtimoiy taraqqiyot nazariyasiga tayanadi. Agar tabiiy jarayonlarni o'rganishga yunalgan an'anaviy fanlar tabiatni "buysundirish" maqsadida jamiyatning tabiatga ta'sirini kengaytirish ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan bo'lsa, ijtimoiy ekologiya esa, odamlar hayotining tabiiy sharoitlarini muhofaza etish va yaxshilash uchun jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish zarurati tufayli yuzaga keldi.

Ilgari jamiyatning yordami tufayli tabiiy muxit o'zini tiklay olardi, endi unchalik darajada emas. Tabiatdagi o'zgarishlarning bugungi katta miqyoslarida tabiatning o'z-o'zini qayta tiklash qobiliyatini taminlashga qaratilgan nazariy va amaliy ishlarni jamiyat o'z zimmasiga olishi zarur. Insoniyat endilikda tabiatdan faqat olavermaydi, zero, tabiatning boylik yaratish imkoniyati tugab boraveradi. Shu sababli inson endilikda tabiatning o'z-o'zini tiklashiga, tabiiy ko'payish jarayonlariga, modda almashinuviga o'zining oqilona tashkil etilgan mexnatlari bilan jiddiy yordam berishi kerak. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari xayotga mustaqil qadam tashlaganlarida tabiatning "buysundiruvchi"siga emas, balki ximoyachisiga aylanishi kerak. Bu ishda, shubxasiz, ularga ustozlari, murabbiylari va tarbiyachilar yordam beradilar.

Jamiyat va tabiat, inson va u yashab turgan muxit o'rtasidagi o'zaro tasir muammosi - insoniyatning abadiy muammolaridan biridir.

Ilmiy-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ekologik ta'lim va tarbiya - yangi insonni shakllantirishning ajralmas qismidir. Shuning uchun ham, ekologik tarbiya

jarayonida foydalaniladigan asosiy tushunchalar mazmunini ochib berish juda asoslidir.

Ekologik ong insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri soxasidagi bilim va etikodni mujassam etadi.

Ekologik bilim - bizning tevarak-atrofimizdagi tirik tabiat tuzilishi. Yerning tirik qobig'i "qanday ishlashi". biosfera faoliyati haqidagi bilimlardir. Bu bilimlar odamlar o'zlarining hozirgi va kelguvsidagi biosfera bilan qanchalik uzviy bog'langanini, tabiatni muhofaza etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir insonda atrof-muhit xolati uchun mas'ullik xissini tarbiyalash, xayvonot va o'simlik olamini asrash ob'ektiv zarurat ekanini tushunib yetishlarining muhim sharti xisoblanadi.

O'quvchilar bilan mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida maqsadga yo'naltirilgan xolda ekologik tarbiya ishlarini tashkil etish lozim. Bunda, eng avvalo, o'quvchilarda tabiatga, atrof-muhitning turli ob'ektlariga nisbatan, zavodlar, fabriqadar, brigadalar, guruxlar tomonidan qabul kilingan qarorlarga, katta yoshdagi kishilar va o'rtoqlari fe'l-atvorini,

o'zlarining xulqini taxlil etishga ekologik yonlashuvni shakllantirish borasida aniq tadbirlar belgilash lozim. Ekologik tarbiyaning muhim shakli o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi ustasi (sinf raxbari. o'qituvchi. muxanlis-pedagog. yotokxona tarbiyachisi) raxbarligilash tabiatni muhofaza etish. kasb-hunar kolleji xududlarini obodonlashtirish. ko'chat-daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish: qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish: bulo, ko'l va ariqlardagi axlatlar va chiqindilarni tozalash: tuman xuduliga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgoxlarga otalik qilish va boshqalar bo'yicha tashkil etilgan amaliy ishlaridir.

Bunday ishlar natijasida o'quvchilarda tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, xuquqiy. axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O'quvchilar insonning tabiatdagi o'rnini. ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatining muhimligini. yer va xavo. kul. daryolarni toza saqlash masalalarini xal etishda faol hayotiy nuqtai nazarning muhim ekanini tushunib yetadilar. Aynan yoshi o'g'il va

qizlarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart xisoblanadi.

O'zbekistonda ekologik ta'lim va tarbiya masalalari "Bog'cha bolalari tarbiyasi dasturiga ham kiritilgan. So'ngra ekologik ta'lim maktablar. kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida hamda bevosita korxonalarda davom ettiriladi.

O'quvchilarning maktabda tabiatshunoslik. biologiya, geografiya. fizika, ximiya va boshqa fanlardan olgan bilimlaridan kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida keng foydalanish lozim.

Usta, murabbiy. muxandis o'z ishini shunday tashkil etmoq kerakki. u o'quvchilar uchun ibrat bo'lsin. o'qituvchi murabbiy. muhandis-pedagog o'quvchilar bilimini yangi tushunchalar bilan boyitishi. ularning kasbiy malaka va o'quvlarini oshirishi. urgatiladigan materiallarni ham. uni tushuitirish shaklini ham bir oz murakkablashtirib borgan xolda ekologik tarbiya berishni yanada kengaytirishi kerak. So'zlar bilan boshlangan har qanday yaxshi da'vat amaliyotda ijtimoiy foydali ishlar bilan mustaxkamlanishi lozim. Kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini nazariy jixatdan tayyorlash ishini ularning tabiatni muhofaza etish borasidagi amaliy faoliyati bilan uzviy bog'lash va to'ldirish maqsadga muvofiq. Masalan. xonalarda o'stirilgan o'simliklarni parvarish qilish. xududlarni tozalash. obodonlashtirish. bog'-rog'larga ishlov berish kabi faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin.

O'quvchilarning shahar va qishloqlardagi ta'lim muassasalarini ko'kadamzor- lashtirishi. o'tkazilgan nixol daraxtlarni. obodonlashtirilgan xududlarni va tabiatni himoya qilish. nazoratchilari tarkibida axillik bilan ishtirok etishlari ekologik bilimlarining amaliy ifodasi xisoblanadi.

Inson tabiat bilan o'zaro munosabatida unda kechayotgan xodisalarning murakkab mexanizmini. uning o'z o'zini "sozlab olishi" va qayta tiklashi jarayonlarini buzmasligi. tabiatni faqat uning qonunlariga muvofiq tarzda o'zgartirishi. zinxor ularga qarshi ish yuritmasligi zarur.

Inson va tabiat o'zaro munosabatlarining haqiqiy optimal shakllari tabiat va

jamiyat borasida g'amxo'rlik ko'rsatiladigan jamiyatdagina mavjud bo'la oladi. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza etish maqsadlari o'rtasida hech qanday zarurat bo'lmaydi.

Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashish. so'zsiz. mustaqil respublikamizdagi har qanday shaxs, har bir o'quvchining fuqarolik burchiga aylanmog'i lozim. Shuni aloxida takidlab o'tish lozimki. o'quvchilarning ekologik ongini shakllantirishning muhim yo'nalishlardan biri ularda tabiatga bo'lgan axloqiy munosabatlarni tarbiyalashdir.

Yer, mulk, tabiiy boylik egasi bo'lishning o'zigina tabiatga g'amxo'rona munosabatni o'z-o'zidan shakllantiravermaydi. U buning uchun asos yaratadi. xolos. Ayrim kishilar tabiat hech kimniki emas. u barchaga baravar. unga zarar keltirilgani bilan hech kim javobgar bo'lmaydi. degan uylar bilan yashaydi. Bunday tasavvur tabiat boyliklariga nisbatan faqat istemol manbai sifatida qarashga olib keladi. Bunday munosabat esa tabiatga ham. jamiyatga ham zarar keltiradi.

Inson tabiat boyliklaridan o'z moddiy va manaviy ehtiyojlari uchun foydalanar ekan, uni qayta tiklashni hayvonlar, o'simliklar, qush va baliqlar, xullas, undagi barcha jonzorlar uchun g'amxo'rlik qilish lozimligini sira unutmasligi kerak. Faqatgina atrof-muhitga bo'lgan ana shunday munosabatnigina axloqiy jihatdan to'la asosli deb bilish mumkin. Chunki u har bir inson uchun ham va xatto butun jamiyat uchun ham foydalidir.

O'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash masalasini xalq etish ularni tabiat bilan optimal o'zaro munosabatdila bo'lish g'oyasini qabul qilish va uni amalga oshirish faoliyatiga tayyorlaydi. Ammo shuni ham R yoddan chiqarmaslik lozimki, axloq o'z mazmunida bunday o'zaro ta'sir me'yorlarini bevosita aks ettirmaydi, uning bevosita qo'llanish soxasi - bu jamiyatdan tashqarida emas, balki uning o'zidagi munosabatlardir. Shuning uchun ham, tarbiyachi yaxshilik qilish, achinish, hamdardlik va ojizlarga yordam berish xissi, ezgulik Axloqiy sifatlar insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'lishini o'ziga aniq tasavvur etishi va uni o'quvchilarga asosli ravishla bayon qila bilishi kerak. Ammo shu bilan birgalikda insonning yovvoyi hayvonlar ning o'zaro munosabatlariga

bilib-bilmay yoki uzoqni uylamasdan turib aralashuvi yirtqichlarning butun populyatsiyasi yomonlashuviga olib kelishi mumkinligini ham yodda saqlash lozim. Yirtqichlarning ham tabiatda o'ziga xos vazifalari bor. Ular tabiatda sanitar vazifani bajaradi. ya'ni tabiiy tanlashni amalga oshiradi. Kuchsiz va kasalga chalingan xayvon tabiatda uzoq yashay olmaydi, yirtkichlar ularni yeb kun kechiradi va shu yo'l bilan guyo tabiatni tozalaydi.

Tabiatdagi hayvonlar ning o'txo'rlari ham. yirtqichlari ham yagona trofik (oziq) zanjir bilan o'zaro bog'langan, xuddi shu manoda unga nooqilona aralashuv tabiatga katta zarar keltiradi. Shuning uchun ham bunga o'xshash tashqi "oliyjanob faoliyat" uylab amalga oshirilgan yuksak axloqiy xatti-harakatlarga bevosita zid kelishi mumkin. Ammo qiyin axvolga tushib qolgan bechora qushlar va hayvonlar , oyoklarini snidirgan jonzotlarga yordam beruvchi bolalar va katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlarini tabiatga bilib-bilmay aralashish faoliyati bilan chalkashtirmaslik kerak. Ular jaroxat organlarini davolab. So'ngra ularni erkinlikka quyib yuboradilar.

Tabiat o'z qonunlari bo'yicha yashashi kerak. Xatto yaxshi niyat bilan tabiat ishiga aralashib, uning qonunlarini bo'zib kuyamiz va ko'pincha unga zarar keltiramiz. Tabiatdagi ko'plab sabab va oqibatlar fanda xali chuqur o'rganilmagan. Shuning uchun ham uning ishlariga xadeb aralashavermaslik, ko'pgina xollarda esa "tabiatning o'zi yaxshi biladi" aqidasiqa amal qilish tavsiya etiladi.

Uy hayvonlar i yoki xonaki qushlar bilan esa boshqacha ish tutiladi. Ayniqsa, ular qarovsiz qoldirilsa, kiynalib qolishadi. Natijada bu tirik jonzotlar erkinlikda tezda xalok bo'lishadi, chunki ular tabiiy sharoitdagi xayotga moslashmagan bo'ladilar. Xonakilashtirilgan hayvonlar ni qarovsiz o'z xoliga tashlab quyish axloqqa ziddir.

Tarbiyachi o'quvchilarga o'rgatadigan axloqiy meyorlar va baxolar haqidagi bilim ularning tabiat bilan o'zaro munosabatlari shaklini tanlashda tayanch vazifasini o'tashi kelgusida o'quvchilar bu bilimlarni mustaqil xolda to'ldirishlari kerak. U ekologik mavzuda yozilgan adabiyotlar, olingan qo'shimcha ma'lumotlar asosida u yoki bu konkret vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila bilish lozim.

O'smirlar va qizlar o'zlarining tabiatga bo'lgan munosabati, ularning axloqiy yetukligi va tarbiyalanganligini bildiruvchi sifat ekanligini anglashlari zarur. Ijtimoiy tadqiqot natijalari aynan o'quvchilar orasida mazkur yo'nalishdagi tarbiyaviy ishlarning aloxida dolzarbligini ko'rsatadi. Ko'pgina xollarda o'smir-yoshlar uy hayvonlariga shafqatsiz munosabatda bo'ladilar. Buni statistik tahlil va ko'zatish natijalaridan ham bilsa bo'ladi. Bu esa bolalarni oila, maktab va boshqa ta'lim muassasalarida axloqiy jihatdan tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatidir. Bolalar yoki o'smirlarning jonzotlarga nisbatan shafqatsizligini ma'naviy nuqson va uning kelgusida og'ir oqibatlarga olib kelishidan xabar beruvchi tashvishli ishorat sifatida qaramoq kerak. Bazan kasb-hunar kollejlarida ham bunday toifadagi bolalar uchrab turadi. Agar ular bu yerda ham zaruriy ekologik ta'lim va tarbiya olishmasa, u xolda tabiatga ham, odamlar ham, O'z-o'ziga ham ko'p zarar keltirish mumkin.

Hozirgi zamonda ko'pgina odamlarning tabiatdan "uzoqlashib qolishi" malum darajada ularning ma'naviy olamiga, tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Ularda tabiatga nisbatan g'amxo'rlik ham ancha xiralashadi.

Ayniqsa, shaharda yashab "madaniylashib" ketgan ba'zi odamlar baxorda keng dalalarga, tabiat kuyniga chiqqanlarida ekologik meyorlarga, axloqiy taqiqlarga amal qilmay, daraxt va bo'talarni sindiradi, o'tlarni payxon qiladi, gullarni yulib tashlaydi, daraxtlar tanasi, tog'u toshlarga, yer yuziga o'z nomini yoki boshqa so'zlarni uyib yozadilar. Ammo bunda ular nafaqat tabiatga balki boshqalarga ham, eng muhimi, o'ziga ham manaviy zarar yetkazayotgani xaqida uylab ko'rmaydilar. Bu ularning tabiatdan, raxim shafqat va g'amxo'rlik tuyg'usidan bir oz bo'lsada uzoqlashib qolganidan dalolat beradi. Bolalarga televizorlarda beriladigan ekologik tarbiya saboqlariga e'tibor berishni tavsiya etish foydadan xoli emas.

Ayniqsa erkin sayoxat qiluvchilarning nooqilona munosabatlari tufayli tabiat ko'p zarar ko'radi, o'zining go'zalligi va noyobligini yo'qotadi.

YOSH bolaning tabiat bilan muloqoti unda axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Bizda juda katta tarbiya tizimi yaratilgan. Unda o'smir yoshlarning tabiat bilan muloqotiga uning qonunlarini, qadriyat va go'zalligini bilishga aloxida o'rni

ajratilgan. Tabiat-ezgulik manbai, uning go'zalligi insonning ma'naviy olamiga ta'sir ko'rsatadi. Ammo odam qalbi ham eng oliy insoniy go'zalliklar-ezgulik, haqqkat, mexr muruvvat, hamdardlik, yovo'zlikka murosasizlik va boshqa fazilatlar bilan bezalgan bo'lishi kerak.

Aslida bolalar har bir soxada kattalardan ibrat oladi. Katta yoshdagi Kishilarning ijobiy xatti-harakati va yaxshi gap so'zlari, tabiatga bo'lgan amaliy oqilona munosabati bolalar uchui saboq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga hayvonlar ni boqish, ko'paytirish, dorivor o'tlar va o'simliklarni yig'ish, atrof-muhitni, ish joyini toza saqlash va boshqa masalalarda o'quvchilarga o'rnak bo'lishlari kerak.

Biz tabiat sirlarini tobora chuqurroq bilganimiz va ekologik bilimlarimizni kengaytirganimiz sari barcha tirik mavjudotga qiziqish-e'tiborimiz ortadi. Tabiatning tabiiy go'zal shakillari va turlari haqidagi tasavvurlarimiz yanada boyiydi. Axir, tabiat va uning turli jonzotlari o'z o'zini yaratadi, qayta tiklaydi, kamol toptiradi. Faqat inson xuddi ana shu jarayonlarda ularga xalaqit bermasligi va ziyon-zaxmat yetkazmasligi zarur.

Yoshlarning dunyoqarashi va ekologik madaniyati bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarning tabiatga bo'lgan munosabati ularning axloqiy yetutsligi va qay darajada tarbiyalanganlik darajasini ko'rsatadi. Ekologik ong va ekologik bilimlar yoshlar dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmog'i zarur. Zero, ekologik bilimlarsiz ekologik madaniyat ham shakillanmaydi. Yoshlar o'zlarining xayoti va faoliyati biosferaning hozirgi va kelajakdagi xolati bilan uzviy bog'liqligini, tabiatni muhofaza qilish esa zarurat ekanini, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va har bir shaxs o'zida atrof-muhitning xolati uchun shaxsiy ma'suliyat xissini tarbiyalashi lozimligini anglab yetishi shart.

Bizningcha zamonaviy ekologik tarbiyani turli yo'nalishlarda olib borgan ma'quldir. Chunki har qanday tarbiyani, ayniqsa, ekologik tarbiyani biror andozaga solish yaramaydi.

Ekologik tarbiya - bu tabiatda mavxum muxabbat uyg'otish vositasi emas, u - insonning unga bo'lgan oqilona munosabatini shakllantirish, mexr-muxabbatni

barqarorlashtirish usuli. Shuning uchun ham u kishilarga bo'lgan xurmat va etibor, ishonch, ular mehnati va hayotini e'zozlash orqali uzoq murakkab yo'lni bosib o'tadi. Biroq ekologik tarbiyani sira ham ishontirish va ko'ndirish, tabiatni sevishga chakiruvchi quruq da'vatnoma tarzida tushunmaslik kerak, u ayni vaqtda, malum darajada taqiq va qattiq jazo hamdir.

Ammo kishida botiniy e'tikod bo'lmasa, bunday ta'qiqlar ham samara bermaydi, muammolar ham o'zicha xal bo'lmaydi. Biz "Yam-yashil o'tlarni toptamang, chamanzorlarni harob qilmang". deya balandparvoz shiorlar osib quyishimiz mumkin. Lekin korxona murilaridan chikayotgan tutunlardan ifloslangan osmonga, xavo katlamiga, zaharlanayotgan ko'l va daryolarga nima deb yoza olamiz.

Har qalay, tabiatni sevish, e'zozlash va uni chin yurakdan muhofazalash omili - bizning kalbimizda, vatanparvarlik va fuqarolik burchimizda, deb bilmog'imiz shart. Bu esa ekologik tarbiya orqali yuzaga chikadi. Ekologik ta'lim-tarbiyaga etibor bermaslik -kelajak avlodlarimiz xayotiga befarqlikdan boshqa narsa emas.

1.4 Ekologik ta'lim barqaror taraqqiyot garovi

YuNESKO va Yaponiyaning taklifiga asosan Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2005-2014 Ishlarni "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" o'n yilligi deb e'lon qildi. Ta'lim - Barqaror rivojlanishni taminlashning asosiy tayanchi sifatida qaralmoqda.

Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Xalqaro komissiya ma'ruzasida (1987 yil) Barqaror rivojlanish uchun ta'limga quyidagicha ta'rif beriladi: *Barqaror rivojlanish uchun ta'lim* "kelajak avlodning extiyojlarini qondirish imkoniyatiga taxtid solmaydigan va hozirgi davr extiyojlarini qondiradigan" "barqaror rivojlanishning dastlabki mazmunini o'zida aks ettiradi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy soxalarii qamrab olgan kompleks muammolarni o'z ichiga oladi. Boshqa so'z bilan aytganda, rivojlanish insoniyat extiyojlarini qondirish va xayot darajasini yaxshilash uchun muhimdir. Shu bilan birga rivojlanish jamiyatda mavjud bo'lgan barcha cheklangan resurslardan – tabiat, inson va iqtisodiy resurslardan samarali va masuliyatli foydalanishga asoslangan bo'lishi

kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa Iqtisodiyot Komissiyasining 2005 yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish uchun ta'lim (BRT) strategiyasida Ta'limning o'zni haqida quyidagilar keltiriladi: - ta'lim. inson xuquqlaridan biri bo'lishi bilan birga, barqaror rivojlanishga erishish. samarali boshqaruv. asoslangan qaror qabul qilish va demokratiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir:

-... barqaror jamiyatning rivojlanishini. tajriba ortib borishi bilan turli javoblar va qarorlar o'zgarishi mumkin bo'lgan uzluksiz ta'lim jarayoni. muammo va dilemmalarni tadqiq etish deb tushunish lozim. BRT maqsadlari bilimlarni kengaytirish. maxsus ko'nikmalarni va intellektni rivojlantirish. hayotiy qarashlarni va qadriyatlarni shakllantirishni o'z ichiga olishi kerak.

-... barqaror rivojlanish uchun ta'lim ekologik. iqtisodni va ijtimoiy o'zaro bog'liq muammolarni o'z ichiga olib. keng va turli fikrlarga boy konsepsiya sifatida shakllanib bormoqda. U rivojlanish masalalari doirasini tobora keng ravishda qamrab olayotgan ekologik ta'lim konsepsiyasini kengaytirmoqda. BRT rivojlanish muammolari bo'yicha ta'limning turli xil elementlarini hamda boshqa mavzularni ham qamrab olmoqda. Shuning uchun, barqaror rivojlanish manfaatlariga yo'naltirilgan Ta'limga kompleks yondashuv maqsadida ekologik ta'limni bundan keyin ham rivojlantirish hamda boshqa soxadagi ta'lim bilan to'ldirish lozim.

Barqaror rivojlanish quyidagi muhim mavzularini o'z ichiga qamrab oladi: qashshoqlik ko'lamini qisqartirish, fuqarolik, dunyo, axloq masalalari. maxalliy va global darajada javobgarlik, demokratiya va boshqaruv, adolat, xavfsizlik, inson xuquqlari, sog'liqni saqlash, jinslar teng huquqliligi, madaniy xilma-xillik, qishloq va shahar

xududlarini rivojlantirish. Iqtisodiyot, ishlab chiqarish va iste'mol strukturalari, barchaning javobgarligi, atrof-muhit muhofazasi tabiiy resurslarni boshqarish va biologik hamda landshaft xilma-xilligi. Bunday turli mavzularni BRT chegarasida ko'rib chiqish uchun to'liq bir yondashuv talab etiladi.

BRT doirasidagi ta'lim maqsadi bilimlarni kengaytirishni, maxsus ko'nikmalar va tafakkurni rivojlantirishni, hayotiy o'rin va qadr-qimmat shakllantirishni o'z

ichiga oladi.

BRT asosiy e'tiborni bilim bilan taminlashdan muammoni qayta ishlash va uning yechimlarini topishga qaratilishini talab etadi. Shunday qilib, Ta'limda aloxida fanlari o'qitish kabi an'anaviy e'tiborni saqlab qolish va shu paytning o'zida har tomonlama va turli fanlar nuqtai nazaridan real hayotiy vaziyatni taxlil qilishga imkoniyat yaratib berish kerak. Buning hammasi o'quv dasturlarni va o'qitish metodlariga ta'sir qilishi mumkin hamda o'qituvchilardan faqatgina yetkazib beruvchi va o'quvchilardan qabul qilib oluvchi rollaridan voz kechishini talab etadi va uzviy hamkorlikda faoliyat yuritishni taqozo qiladi.

Barqaror rivojlanish uchun Ta'lim mazmuniga bog'liq bo'lgan bazi muhim masalalarni muxokama qilishga harakat qilaylik. Birinchi navbatda o'quvchilarga beqarorlik ko'lamini qurishda va mavjud muammolar sabablorini tushunishda ko'maklashishimiz lozim. Lekin, biz bolalarga kelajakka ishonch tug'diradigan ijobiy, etiborni jalb etadigan va shu vaqtning o'zida real xayotga to'g'ri keladigan kelajak tasvirini ko'z oldilariga keltira olishimiz muhimdir. Aynan shuning uchun ham. Barqaror rivojlanish uchun Ta'lim tarkibiga ko'rib chiqilayotgan muammo ko'lamiga to'g'ri keladigan yechimlar kiritilmog'i lozim, o'quvchilar samarali yechimlar - muammoning ko'plab oqibatlarini emas, balki muammo sabablarini bartaraf qilishga qaratilishini tushunib yetishlari lozim. Ko'pgina ekologik muammolar o'tgan XX-asr ijtimoiy-iqtisodiy tizimi tufayli yuzaga kelgan ekan. Aynan iqtisodiyot tabiat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarini o'rganishga asosiy etibor qaratilishi zarur.

Shunga qaramasdan, yuqorida sanab o'tilgan masalalarni maktab fanlari yoki aloxida o'quv kursi tarkibiga qo'shadigan bo'lsak ham bu BRT ga butunlay erishish uchun yetarli bo'lmaydi. Tarkibiy qismdan (*nimani o'qitmoq?*) tashqari. BRT uchun o'qitish jarayonining o'zi (*qandan o'qitmoq*) ham muhimdir. aniqrok aytadigan bo'lsak. o'quvchilarda ro'y beradigan o'zgarishlar katta ahamiyat kasb etadi.

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim inson ongi va xulq-atvoridagi o'zgarishlarga erishishga qaratilgan. Mashxur psixologlarning fikricha, shaxsiy o'zgarishlar

qanday bulmasin, faqatgina shaxsning faoliyat va muloqotga faol jalb etilganligi bilan amalga oshishi mumkin.

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim maqsadlarining shaxsga yo'naltirilganligi tufayli, uni tatbiq etishning yagona maqul yo'li bizning nazarimizcha - interfaol yondashuvdir.

Interfaol yondashuv - o'qitish uslublarining keng ko'lamini, jumladan, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan aniq jarayonlar va yechimlarga qaratilgan faol uslublarni qo'llaydi. Mazkur yondashuvda ananaviy uslublardan tashqari munozara, konseptual va qabul qilish kartochkalarini yaratash, dunyoni falsafiy anglash qadr-qimmat kategoriyasini tushuntirish, rolli va imitatsiya uyinlari, rivojlanish ssenariysini tayyorlash, modellashtirish, uyinlar, axborot kommunikatsiyalar texnologiyasi (AKT) tekshirish, mavzuga doir izlanishlar, ekskursiyalar va darsdan tashqari ta'lim. o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan loyixalarni tayyorlash, ilg'or tajribalar taxlili, ishlab chiqarishdan olgan tajribani o'rganib chiqish va muammolarni yechish kabi mezonlardan foydalaniladi.

Barqaror rivojlanish kelajakka yo'naltirilganligi, keng ko'lamlilik, malum qarama-qarshiliklarga ega ekanligi va universal andazalarning yo'qligi tufayli bizni pedagogik yondashuvlar tanlashda ham o'sha xulosaga yetaklaydi. Tayyor bir tomonlama javoblarni eng qisqa yo'l bilan tushuntirishga asoslangan ananaviy didaktika yordamida barqaror rivojlanish g'oyalarini yetkazib berish samarasizdir. Shu bilan birga tadqiqot va interfaol yondashuvlardan foydalanish - turli variantlarni har tomonlama ko'rib chiqish, e'tiborni kuchaytirish va boshqa inson nuqtai nazariga xurmat bilan qarash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga imkoniyat beradi va eng muhimi, mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan tanqidiy fikrlovchi shaxslarni shakllantiradi.

Turli davlatlar ta'lim amaliyotida barqaror rivojlanish uchun Ta'limni amalga oshirishning turli yondashuvlari mavjudligiga qaramasdan BRTga erishishning qulay yo'llarini ko'rsatib beruvchi bir nechta "vektorlarni" ajratib ko'rsatish MUMKIN. Ta'lim berishning interfaol usullaridan foydalanish o'zgarib

borayotgan ta'lim paradigmasiga - ya'ni oddiy harakatdan insonparvarlikka va o'zgarib borayotgan dunyoqarashga mos keladi. Oxirgi paytlarda ta'limning eng mashhur shiorlaridan biri aynan shu ekanligi bejis emas: "O'quvchi - bu to'ldirish kerak bo'lgan idish emas ...". Biz idishlarni tuldirmaymiz va o'quvchilar passiv bilim oluvchilar emas. balki ta'lim jarayonining faol ishtirokchilaridir.

Darhaqiqat, biz biror narsani qanday qilib o'rganganimiz va tushunib etganimiz ustida o'ylasak, xoynaxoy shaxsiy kashfiyotlar bilan bog'liq muloqot tajribasi. Unitilmas voqea, ruxiy kechinmalarni eslasak kerak. O'quvchilar sinflarda utirib va o'qituvchiga quloq solib, bajarilgan uy ishlarini eslab va tayyor javoblarni berib o'rganishmaydi. Ular nima o'rganayotganlarini va nimani o'rganganlarini gapirishlari, ularni muloxaza qilib yozishlari, yangi o'rganilgan bilimlarni eski tajribalar bilan bog'lashlari hamda o'rganganlarini kundalik xayotda qo'llashlari lozim.

Ammo ta'lim harakat jarayonida yuz berayotgani yo'q. Ta'lim bo'lib o'tgan xodisani dars paytida anglashga harakat qilish - refleksiya (fikir yuritish) natijasida yoki o'rganilganlarni kundalik fikrlar va hayotiy odatlarga kirib borishi natijasida sodir bo'lmoqda. Ko'zdan kechirish va refleksiyani o'z ichiga oluvchi Ta'lim berishning interfaol usullari o'quv materialini bir yaxlit xolda birlashtirishning yaxshi vositasidir.

Barcha zarur komponentlari i (tajribaga ega bo'lish va taxlil qilish, refleksiya va obzor, keng nazariy konsepsiyalar bilan bog'liqlik, yangi vaziyatda o'rganilganlarni qo'llash) o'z ichiga oluvchi o'qitish jarayoni ta'lim siklining modellaridan birida keltirib o'tiladi. Bu model xorijiy va mamlakat pedagoglariga "faol o'qitishning kolba sikli" sifatida yaxshi tanishdir.

Axborotlashtirish davrida maktab yagona bilim manbai bo'lmaganligi uchun o'qitish boshida mavjud tajriba va bilimlar bo'yicha obzor o'tkaziladi. Samarali o'qitish jarayonining har bir bosqichi shu bilan boshlanadi va yakunlanadi. Bolalar bilan ishlayotganda ulardagi mavjud bo'lgan tajriba bilan chegaralanish yetarli emas. Bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini dolzarblashtirish maqsadida odatda dars yoki mashg'ulotlar doirasida shunday vaziyatlarii yaratish lozimki bunda

bolalar ma'lum tajribaga ega bo'lishi orqali taxlil va tushunishning yangi bosqichiga chiqishi lozim.. Bu bosqichda. bolalarga ma'lum savollarni, tasvirlarni tasdiqlarni muxokama qilish. filmdan parcha

ko'rib uni sinfdoshlar bilan muhokama qilish, katta bo'lmagan vazifalarni bajarishni taklif etish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek agar o'quvchi o'rgangan bilimini anglab yetmasa unda Ta'lim jarayoni yuz bermaydi. Aynan shuning uchun ham siklning eng muhim bosqichi obzor yoki refleksiyadir. Bu bosqichda o'quvchi vazifani amalga oshirish jarayoni va uni bajarish natijalarini anglash, o'z tuyg'u va tasurotlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Odatda bunday paytda o'quvchi qo'yilgan vazifalarni yechishda qanday malumot yetishmaganligini tushunishi mumkin yoki olingan natijalarni tushunishga harakat qiladi.

Aynan shu nuqtada dalil va qonunlarni tushuntiruvchi umumiyroq nazariya bilan tanishish vaqti keladi. Shuning evaziga o'quvchi o'z tajribasini kengroq tasvirda "ko'rishi". anglangan tushuncha va o'rganilgan hodisalarga joy topishi mumkin. O'qitish samarali bo'lishi uchun, yakunlovchi bosqich zarurdir. O'z navbatida bu bosqich yangi tushunish bosqichining birinchi qadami xisoblanib, bizni sikl boshiga qaytaradi. Bu olingan bilim va ko'nikmalarni yangi o'quv yoki ish vaziyatlarida qandaydir vazifa yoki muammoni xal etish uchun qo'llashdir.

Hamma narsa risoladagidek bo'lsa, jarayon o'quvchilarda bilim eg'allashga yoki olingan bilimlarni yangi vaziyatda kullay olishiga bo'lgan motivatsiyaning shakllanishi bilan yakunlanishi kerak.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, o'qituvchilar bilimining eskirish muddati 2.5-4 yilni tashqil etadi. Xoynaxoy, bu faqatgina maxsus fan doirasidagi bilimlarga emas, balki o'qituvchining umumpedagogik bilimlariga ham tegishli bo'lsa kerak. Har yili bosh miyaning ishlashi. o'quvchilarning yoshiga xos xususiyatlari, bilim, ko'nikma, Qadriyatlarni shakllantirishga tasir etuvchi u yoki bu omillar xaqida yangi ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Bu ma'lumotlar, shubxasiz. har bir pedagogning ish faoliyati bilan bog'liq va o'qitish amaliyotini modifikatsiya qilishga (ba'zi xollarda xatto tubdan o'zgartirishga) asosdir. Har bir pedagog bu ma'lumotlarning faqatgina

bir qismini o'zlashtirib oladi va bir nechta yangi usullarni eg'allaydi. Hamkasabalar darslarini taxlil qilish bu usullarni keng kulamda ishlatilishiga va o'z ishini tanqidiy anglashga xizmat qiladi. Pedagoglar yangi o'quv materiallarini faqatgina istemolchilari bo'lmay, ularni ishlab chiqish va moslashtirishda ishtirok etishlari mumkin va shartdir.

Dunyoni uning harakati va barcha murakkab aloqa dorliklari bilan bir butun qabul qilishga qaratilgan barqaror rivojlanish uchun Ta'limni xayotga tadbiq etish uchun. Birinchi navbatda o'qituvchilar qarashlarini o'zgartirish talab etiladi. Bilim qadriyatlarining pedagoglar tomonidan noto'g'ri tasavvur etilishi o'quvchilarda mustaqil tankidiy fikrlashni, ma'lumotni tanlash, taxlil qilish va undan foydalanish imkoniyatlarini chegaralaydi. Shuning uchun biz o'qituvchilar o'z say-harakatlarimizni ta'limning maqsad va ustuvorligidan kelib chiqqan xolda, pedagogik muhitda saqlanib kelayotgan kolip va aqidalarni o'zgartirishga karatishimiz lozim.

Shunday qilib barqaror rivojlanish manfaatlariga yo'naltirilgan ta'lim insonlarga dunyoni xavfsiz roq, sog'lomroq va go'zalroq qilish imkoniyatini berib, insonlar qarashlarini o'zgarishiga ham ko'maklashi mumkin.

. Ekologik ta'lim strategiyasi.

Ta'lim - muayyan bilimlar va ular bilan bog'liq ko'nikmalar, qoidalarni o'zlashtirishga va qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bilim va tarbiya berish tizimidir. Hozirgi davrda ta'limning yangi yo'nalishi -Barqaror rivojlanish Ta'limi (BRT) shakllanmoqda.

Barqaror rivojlanish ta'limi - insonlarga. turli tashkilotlarga. jamiyatga qaratilgan chaqiriq bo'lib, u barchaga tegishli bo'lgan kelajakka nazar tashlashga imkon beradigan jarayondir.

Barqaror rivojlanish ta'limining maqsadi - barqaror rivojlanish g'oyalarini butun dunyoda barcha darajadagi ta'limga joriy etish va shu orqali ta'lim barcha uchun umumiy kelajakni o'zgartirish va yaxshilash vositasn bo'lishinn taminlashdir.

Hozirgi vaqtda Barqaror rivojlanish ta'limi aksariyat xollarda ekologik ta'lim deb tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan. ekologik ta'limni aktuallashtirish, ta'limning mazmuni Hozirgi manaviy qadriyatlarga va moddiy ishlab chiqarish talablariga, hozirgi zamon ilmiy bilimlariga muvofiqligini ta'minlash zarur. Bilimlarni qayd etishning yangi shakllari, shu jumladan kompyuter yordamida bilimlarni zichlashtirish, bilimlarni nafaqat eslab qolishii, balki fikrlash, mustaqil o'qib-o'rganishni o'rgatish, ta'lim shakllari va usullarini o'zgartirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish - bularning barchasi hozirgi zamon ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish jarayoniga kiradi.

Uzluksiz ekologik ta'lim tizimini yaratish yuqorida zikr etilgan jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Mazkur ta'lim tizimi inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab olishi lozim. Uzluksiz ekologik ta'lim tizimi o'z shakllari va usullarining rangbarangligi bilan tavsiflanadi. Ekologik ta'limning maqsadi yoshlarda va jamiyatning barcha a'zolarida ekologik dunyoqarashni shakllantirishdir. Uzluksiz ekologik ta'lim tizimi xozir asta-sekin shakllanmokda, uning asosiy xususiyatlari va bosqichlari belgilanmokda. Chunonchi, uzluksiz ekologik ta'lim bosqichlari maktabgacha ta'limni, umumiy ta'limni, har xil darajadagi (kasb-hunar kollejlaridan universitetlar va aspiranturalargacha) kasb-hunar ta'limini aholiga mexnat faoliyati bilan faol mashg'ul bo'lishi davrida ta'lim berishni pensionerlarni va oilaning ishlamaydigan a'zolarini o'qitib-o'rgatishni o'z ichiga oladi. Shundan qilib, ekologik Ta'lim inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab oladi, uning bilim va ko'nikmalarini muttasil yangilash va to'ldirishni taminlaydi.

Biroq, o'tkazilgan tadqiqotlar ekologik ta'lim atrof muhit muammolarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jixatlariga yetarlicha e'tibor qaratmasligini ko'rsatdi. "Ekologik ta'lim" iborasining o'zi ham barqaror rivojlanishning uch tarkibiy qismi – tabiat, jamiyat va iqtisodiyotii to'liq qamrab olmaydi.

Albatta, atrof muxit masalalari barqaror rivojlanish bo'yicha ko'plab tashabbuslarning asosiy qismi xisoblanadi. Barqaror rivojlanish ta'limi barqaror rivojlanishning uch tarkibiy qismi - jamiyat, tabiat (atrof muhit) va iqtisodiyotii

hamda rivojlanishning yana bir muhim jixati -madaniyatni ko'rib chiqadi. Barqaror rivojlanish ta'limi -yangicha qadriyatlarni shakllantirishni talab etadi, chunki qadriyatlar insonlarning bir-birlariga va atrof muxitga munosabatlarini belgilaydi va ularning xulq-atvorlarini boshqaradi.

Shuni aloxida ta'kidlab o'tish zarurki, ekologik ta'limdan barqaror rivojlanish ta'limiga o'tish - Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan o'nyillikning asosiy shioridir. Barqaror rivojlanish ta'limi - har bir insonga barqaror kelajak qurish uchun zarur bilimlar, ko'nikmalar va qadriyatlarga ega bo'lishga imkon beruvchi jarayondir. Shuningdek, Barqaror rivojlanish ta'limi – iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy siyosat soxalarida chuqur uylangan, oqilona qarorlar qabul qilishga o'rgatish jarayonidir, uning maqsadi - barqaror jamiyat qurishdir.

Barqaror rivojlanishning falsafiy va amaliy jixatlarini yorituvchi informatsion materiallar va o'quv dasturlarni ham axborot texnologiyalar orqali talabalar, o'qituvchilar va keng ommaga yetkazilishi mumkin.

O'qitish yoki ta'lim darajalari

1. rasmiy ta'lim umumta'lim va kasbiy o'quv muassasalarida olib boriladi va keyinchalik tan olinadigan diplom hamda malaka o'zlashtirilishi bilan beriladi.

norasmiy ta'lim rasmiy ta'lim tizimining va kasbiy tayyorgarlikning doirasidan tashqari olib boriladi, ba'zida esa unga parallel xolda yuritiladi va odatda diplom berish bilan tugamaydi. Norasmiy ta'lim ish joyida va fuqarolik jamiyat, tashkilotlar va guruxlar (masalan. yoshlar tashkilotlari. kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalar) faoliyati orqali olib borilishi mumkin. Bundan tashqari u rasmiy tizimlar (misol uchun, badiy. Musiqiy, sport sinflari va imtixonga tayyorlash bo'yicha xususiy darslar) qo'shimchalarida tashkil etilgan tashkilotlar va xizmatlar orqali amalga oshiriladi.

Oldindan ko'zlanmagan ta'lim - bu kundalik xayotimizga qo'shimchadir. Rasmiy va norasmiy ta'limdan farqli o'laroq oldindan ko'zlanmagan ta'lim maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini taqdim etishi shart emas, undan tashqari esa individuumlar tomonidan aniq

bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga ko'mak beruvchi jarayoni sifatida tan olinishi ham shart emas.

4. BUTUN UMR buylab davom etadigan ta'lim -

bu butun xayot buylab davom etadigan uzluksizyoki vaqti-vaqti bilan davom etadigan ta'limdir. Bunday ta'lim individuumlarning xayotlarida kerak bo'lgan hamda ixtiyoriy rol, sharoitlar va jamiyatdagi muhitda o'ziga ishonch, ijodiy va ixtiyoriy ravishda kullay oladigan barcha bilimlar va tushunchalarga eta bo'lishini ratbatlantiradi.

5. Xayotiy masalalar butun kompleksi duyicha ta'lim

Inson butun umri davomidagi ta'limni boyitib, xayotning ixtiyoriy bosqichida aloxida e'tibor qaratadi.

Bunday ta'lim, barcha hayotiy masalalarni qamrab olishining o'zi rasmiy, norasmiy va oldindan ko'zlanmagan ta'lim shakillarining o'zaro bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi. Bu bizga foyda keltiradigan va qoniqish uyg'otadigan ta'limning oilada bush vaqtda, jamoatchilik ma'nosida va kundalik ish faoliyati jarayonida olib borilishi mumkinligini va olib borilayotganini eslatadi. Bundan tashqari bunday ta'lim bizga o'qitish va ta'lim faoliyati vazifalarning vaqt, joy va turidan kelib chiqqan xolda o'rniga kelishi va almashishi mumkin ekanligi haqida tushuncha beradi. Hamma toifalar ham ketma-ket bo'la olmaydi, masalan norasmiy ta'lim sinflarda olib borilishi mumkin, lekin bu toifalar ta'limning sinflardan tashqari olib borilishini ifodalandi.

6. ijtimoiy ta'lim. Bilimlarning va tushunishning o'sishi ham shaxsiy, ham umumiy elementlarni o'z ichiga oladi. "Ijtimoiy ta'lim" iborasi ta'lim ijtimoiy MUHIT va mazmunda olib borilgani uchun doimiy ravishda ijtimoiy jarayonni namoyon qiluvchi g'oya bilan bog'liqdir. Bundan tashqari o'quvchilar ishtirok etadigan amaliyot, ular tomonidan singdiriladigan usul va uslublar, rivojlantiriladigan ko'nikmalar va tushunish qobiliyati ham ijtimoiy mazmunga taalluqlidir. Shu bilan bir qatorda o'quvchilar ko'p xollarda malum mexnat tarmog'iga aloqa dor bo'lgan hamkorlik bilan harakterlanuvchi vaziyatlarga tushib qolishadi. O'zaro ijtimoiy aloqa o'quvchilarga o'zlarining

g'oyalari, qarashlari, tajribalari va xissiyotlarini boshqa shaxslarniki bilan qiyoslashga yoki aks ettirishga yordam beradi. Bunda "qiyoslash" yoki "aks ettirish" jarayonida bu shaxsiy g'oyalar, qarashlar, tajriba va xissiyotlar oxir-oqibat o'zgarishi mumkin. Bu xodisa o'quvchilar alternativ, bazi xollarda qarama-qarshi nuqtai nazarlar yoki anglash va qabul qilish yo'llari soxasida o'z g'oyalarini qayta ko'rib chiqishlariga turtki bo'lishi mumkin. Shu vaqtning o'zida boshqalar bilan tajriba almashish ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Biroq "ijtimoiy ta'lim" atamasi ba'zida qandaydir gurux, tashkilot yoki butun jamiyat o'zining bilim darajasini oshirishda qullaydigan bazi ta'lim tizimlari va jarayonlarini tariflashda ham ishlatiladi. Bu ma'noda "ijtimoiy ta'lim" atamasi "ta'lim" atamasini uning oddatdagiday ma'nosiga qaraganda kengaytirish maqsadida ishlatilgan. U aloxida shaxslarning ta'limini o'z ichiga oladi. Lekin butun guruxlar ta'limi imkoniyatini ham tan oladi. Barqarorlikka erishishda harakat qilish shu ta'limga bog'liq deb tasdiqlash mumkin.

7. Ijtimoiy ta'lim asosida yotuvchi g'oya, nafaqat insonlar o'z shaxsiy ko'nikmalarini ishga solgan xolda, balki shaxsiy tajribalarini boshqalarniki bilan qiyoslash orqali ham ta'lim olishlaridan iborat. Individual tajribani tan olishda, aniqlashda va umumiyashtirishda boshqa odamlar katta ahamiyat kasb etadi deb extimol qilinadi.

Ijtimoiy ta'lim doirasida o'qitish jarayonining o'zagini tashkil qiluvchi to'rtta asosiy elementni ("o'q") tanlash mumkin.

a) harakat. odamlar o'zlarining shaxsiy xodatdarini faol boshqara oladigan inson sifatida uylashlariga tayyor bo'lishlari va imkoniyatga ega bo'lishlari kerak (motivatsiya). Shuning uchun ta'lim jarayonining tashkilotchilari ta'lim olayotganlarga komponent ishtirokchilar sifatida yondashib ularning o'zlari nima qilishdari mumkinligini aniqlashlari kerak:

b) hamkorlik. odamlar boshqalar bilan hamkorlik qilishga qodir va tayyor bo'lishlari kerak. Bu soxada gurux doirasida mos kelish va mos kelmaslik nuqtai nazaridan keskin vaziyatlar vujudga kelishi mumkin:

c) fikr yuritish: odamlar o'zlari qilgan ishlari haqida fikr yuritishga, o'tmishga nazar tashlash, baxolash va xulosa qilishga (o'qish) qodir bo'lishlari kerak va bular asosida o'zlarining xatti-harakatlarini o'zgartirishlari lozim:

s!) kommunikatsiya: odamlarning ijtimoiy ta'lim haqida axborot berish, tushuntirish va uni boshqa odamlarga namoyon qilish - tajriba berish, ijtimoiy ta'limning shartlaridandir.

Yondashuv va usullar

1. Faol dars derish va o'qitish yondashuvida barqaror rivojlanish uchun ta'lim maqsadi bilish jamiyatga va atrof-muhitga barobar o'zgarishlarni kiritishga ko'mak berish kabi faoliyatlarga urg'u beriladi. Shuning uchun dars va ta'lim berishning tashkil etuvchi elementlaridan bo'lgan o'quvchilar hamda boshqa maqsadli guruxlar tomonidan o'tkaziladigan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari BRT doiralarida o'tkazilishi tavsiya etiladi. Ixtiyoriy harakatlar ma'lum bir o'zgarishlarga qaratilgan bo'ladi: o'zining turmush tarzida, maxalliy jamoatchilik yoki umuman jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar. Bunday harakatlar avvaldan ko'zlangan harakterga egadir. Faol yondashuv ikkita asosiy maqsadni ko'zda tutadi: o'quvchilarda harakat qilishga bo'lgan qobiliyatlarni shakllanishiga hamda qisqa va uzoq muddatli istiqbol barqaror o'zgarishlarni kiritishga ko'mak berish.

2. Tanqidiy fikrlash bu ma'noda BRT mafkuraviy nuqtai nazardan kuchli bo'lishi va ijtimoiy jixatdan tanqidiy bo'lishi kerakligini bildiradi, ya'ni bu bilan shu narsa ma'lum bo'ladiki, xech qanday ta'lim qadr-qimmatlari siyosiy betaraf xisoblanmaydi. Umuman olganda: tanqidiy fikrlashni individuumlarni axborotni o'zlarining qadr-qimmatlari, manfaatlari va bilimlari doirasida tushunishlariga qarab adaptatsiya qilishlari ularda mavjud bo'lgan usul sifatida aniqlab olsa bo'ladi. Tanqidiy fikrlashning bu ta'rifi ta'lim olish jarayonida keng tarqalgan. Biroq o'qtuvchi va o'quvchilarning turli mavzular, ayniqsa, madaniy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha ochiq yondashuvlarni qabul qilishga tayyorgarlik darajalariga aloxida urg'u berish kerak. Eng yaxshi xolda tanqidiy fikrlash. butun axborot inson qobiliyatidan tashqari asosan zamon va makon bilan bog'lanishini xisobga olgan ravishda, ijtimoiy-madaniy va

intellektual moslashuvchanlikka olib kelishi mumkin.

3. Demokratik jarayon. XXI asr kun tartibiga binoan, butun dunyo yoshlarining qaror qabul qilish jarayonining barcha tegishli bo'lgan darajalarida ishtirok etishi o'ta muhimdir. Chunki yoshlarning bugungi xayoti bunga bog'liq va ularning kelajagiga bevosita ta'sir etadi. Yoshlarning intellektual xissa qo'shishi va u ko'makni qulay ravishda yo'naltirish imkoniyatiga egaligi bilan bir qatorda unga tinchlikni o'ziga xos qurish qobiliyati mavjud va uni inobatga olish zarurdir (25 bob. "Barqaror rivojlanish UCHUN ta'lim jarayonida bolalar va yoshlarning manfaatlarini xisobga olish"). Bundan tashqari maxalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga axoli bilan maslaxat o'tkazish va u yoki bu jamoa uchun umumiy muzokara tanlashlari tavsiya etiladi (XXI asr kun tartibi. 28 bob). Demokratiya deyilganda, an'anaviy xolda muassasalarda qaror qabul qilish jarayonida insonlar manfaatlariga tegishli bo'lgan masalalari bo'yicha barcha xuquq va imkoniyatlarning tengligi tushuniladi. Ushbu tasdiqlanib bo'lingan tushunchada suverenitetning, ayniqsa, millat orasida faollik roliga urg'u berilmokda. O'tgan o'n yillik ichida iqtisodiy va ekologik globallashtiruvning keskin tarzda rivojlanib ketishi barcha insonlarning xayotlari davomida barqaror rivojlanishni ta'minlash yo'lida muammolar yaratdi va bu muammo unchalik sezilarlik bo'lmasa ham uning mavjudligini esdan chiqarmaslik kerak.

4. o'quv jarayonida dinamizm ta'lim faoliyatida o'quvchilarning faollashuvini rag'batlantiruvchi hamda o'quvchining mavjud bilim va ko'nikmalarini xisobga olgan xolda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi kuchli o'zaro jipslashuvga ko'mak beruvchi sifatlarga urg'u beradi. Dinamizm, o'qitish va ta'lim olish jarayoni axoorot o'zlashidan bir oz kengroq va o'quvchi bunda sust qabul qiluvchi sifatida qurib chiqiladigan hamda nisbatan mexanik yondashuvni nazarda tutuvchi statikaning qarama-qarshisi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin.

5. **Yaxlitlik** barcha tabiiy narsalar qolgan narsalar bilan bog'liq bo'lib, har bir predmet umumiy bir bugunning qismi hamda o'zining tarkibiy elementlaridan

muhimroqligi haqidagi g'oyada o'z aksini topadi.

"Yaxlit" atamasi bu yerda o'quvchilar va o'quv jarayonining yaxlitligi va ketma-ketligini tushunish bilan bevosita bog'liqdir, ya'ni o'quvchilar o'zlarining extiyoj va qiziqishlari bilan birga - "yaxlit shaxslar" (shu bilan birga ma'naviy va emotsional manoda) sifatada hamda o'quv jarayoni –kasbiy, shaxsiy, intizomiy, ijtimoiy va xokazo sifatida ko'rib chiqiladi.

6. Integratsiyani —«fragmentatsiya segregatsiya dezintegratsiya»

spektirining qarama-qarshi tomoni sifatida ko'rib chiqish kerak. Integratsiya bu ma'noda o'quv predmetlarining, tashqitlarning, o'quv muassalari va ular tarkibiy jamoalarining, shu bilan birga o'quv muassasining besh ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqiladigan – axlok, dasturlar (agar mavjud bo'lsa), pedagogika, jamoani tashkil etish va boshqarish unsurlarining integratsiyasi sifatida tushuniladi. Integratsiya harakatlari faqatgina bir soxada qisman o'zgarishlarga emas, balki barqarorlikni aks ettiradigan barcha soxa va ko'rsatkichlardagi tizimli tarkibiy o'zgarishlarga qaratilgan. Qolaversa, integratsiya ta'lim faoliyati doirasida xech qanday fan, omil yoki muammolar aloxida mavjud bo'lishni mumkin emasligini aks ettiruvchi fanlararo va transfanlar bo'yicha tadqiqotlarga nisbatan ko'proq yo'naltirilgan urg'u berilishini anglatadi. Fanlararo va transfanlar bo'yicha tadqiqotlar evaziga ixtiyoriy fanning an'ana va tushunchalar chegarasini yengil kesib o'tib, faoliyat yuritishning yangi mazmuni va usullarini yaratish mumkin. Aksincha. fanlari oddiygina umumlashtirish ko'p xollarda bazi aloxida qismlarning umumlashuviga olib keladi xolos.

7. Fanlararo yondashuv. Bu yerda turli xil nuqtai nazarlarning o'zaro munosabatiga urg'u beriladi. Fanlararo yondashuv bu kollej yoki universitetda ikki va undan ortiq turli o'quv fanlarining birgalikda olib borilish: yagona asosda qator fanlarning umumiy ko'rib chiqilishidir.

8. Ko'pfanli yondashuv qandaydir masalani umumlashtirmagan xolda turli gneseologik va amaliy nuqtai nazarlardan ko'rib chiqish bilan bog'likdir. Ko'pfanli yondashuv turli o'quv fanlarini bitta faoliyat turi doirasida, fan va nazariya tarkibiga o'zgarishlar kiritmagan xolda qamrab oladi.

9. Muammoga yo'naltirilganlik biron-bir fan doirasida qandaydir keng mavzu atrofida o'quv jarayonini tashkil etish o'rniga o'rganilayotgan fan doirasida qandaydir aniq savol yoki muammo ko'rib chiqilishi kerakligini anglatadi.

10. Jarayonga yo'naltirilganlik mazkur ma'noda ta'lim faoliyati doirasida rejalashtirish, pedagogika, didaktika va boshqalarning ko'lamini kengaytirishni, yani o'quv fanining tarkibiga tor etibordan ta'limni jarayon sifatida keng manoda tushunishga o'tishni va axborot tarkibining umumiy mazmun bilan bog'lanmagan xolatidan ko'ra soxalar orasida faoliyat, dinamika, subektlar, bosqichlar va o'zaro munosabatga ko'proq ahamiyat berishni anglatadi.

11. Muammolar majmuasiga asoslangan ta'lim muammoning mazmun jixatidan qo'yilishi va xolatni ko'rib chiqishi bilan tavsiflanadi, o'quv kurs mazmuni real xayot muammosi mazmuinga kiritiladi. Real xayotdan olingan muammolar, misollar o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiruvchi vositalar sifatida ishlatiladi, ya'ni oldindan ma'lum miqdordagi axborotga ega bo'lish hamda shu paytning mavjud bilimlarni berishni (shaxslararo ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va x.k.) rivojlantirish nazarda tutiladi. Muammolar majmuasiga asoslangan o'qitish bilan qo'shma yoki faol o'qitish orasidagi farq umumiy xususiyatlari yonma-yon tavsiflanishi tufayli ko'pincha sezilarli bo'lmaydi.

12. Loyixa bo'yicha ish muammo va maxsulot, fanlararo yondashuv, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik hamda o'qituvchilar va o'quvchilar ishtirokidagi qo'shma rejalashtirishga yo'naltirilganlik bilan tavsiflanadi. Ko'rib chiqilayotgan savol va muammolar atrof-muhit dunyosidan (asllik) olinishi kerak. Fanlar bo'yicha tegishli bilimlar esa ko'rib chiqilayotgan muammoga muvofiq xolda tanlanib olinishi kerak. Loyixa bo'yicha ish ilmiy tamoyillarga (amaliy izlanish faoliyati) asoslangan va mavjud bo'lgan yechim takliflarga qaratilgan individual va jamoaviy ta'lim jarayonidan iborat.

13. Bilimlarni boshqarshi bilimlarga bo'lgan talablarning birlashishiga va ularning takliflari bilan bog'liq. Bu bilimlar tushunishga va tajribaga, eng yaxshi

ish uslublariga, yangi g'oyalar, ijodiy "yechimlarga", ko'nikmalarga va xokazolarga bog'liq. Bu yerda gap dono yondashuvlarning shakllanishiga va muammolarni tushunishga yordam beradigan qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan bilimlar haqida bormoqda. Shuning uchun bilimlarni boshqarish faqatgina ularning tuplanishini anglatmaydi. Bilimlarni boshqarishga bo'lgan extiyoj nafaqat barqarorlik soxasidagi ta'lim jarayonlari bilim bo'yicha va tushunchalarning mavjud emasligi, balki bu bilimlardan yetarli darajada foydalanish imkoniyatining yo'qingi bilan bog'likdir. Bu bilimlar kengroq tarqalishi hamda extiyoj mavjud joyda ulardan foydalanish imkoniyati ta'minlangan bo'lishi darkor. Bunda bilim va tushunchalar siyosatning "daxldor" soxalari bilan bog'lanishi aloxida ahamiyat kasb etadi.

14. Majmuaviy hamda qabul qilish haritalarini tuzish. Majmuaviy haritalarni tuzish bir tizim bilan boshqa tizim yoki konsepsiya va x.k.larning o'zaro munosabatini va aloqasini namoyish etuvchi rasm (sxema, harita)larni ko'rsatish imkoniyatini beruvchi kurgazmali vositalar sifatida qurib chiqiladi.

Umuman olganda o'zaro bog'liq bo'lgan "majmuaviy haritalarni tuzish". "majmuaviy harita" va "qabul qilish haritalarini tuzish" atamalar orasida quyidagi asosiy farqtar mavjud:

a) qabul qilish haritalarini tuzish: tajriba, tasvirlarni va muvozanat xolatida kuzatilayotgan elementlarni hamda ular orasidagi o'zaro aloqani qabul qilish orqali inson ongida qandaydir sxemaning tuzilishi:

b) majmuaviy haritalarni tuzish konseptualizatsiya, "ob'ekt" (qonuniyat)ga ma'no berish va uni individuumning majmuaviy tizimiga kiritish maqsadida insoniyat ongida abstrakt sxemani tuzishni bildiradi:

c)majmuaviy haritalar - bunday abstrakt sxemalarning aniq grafik tasviri, biroq, xatto konseptuallashtirish hamda majmuaviy haritalarni tuzishdan oldin inson ongida sxemaning tuzilishi sodir bo'ladi.

16. Qadriyatlarini anglash - bu o'quvchilar o'z fikrlarini, xissiyotlarini hamda bag'ishlanganlikni aniq ifodalashga va shu bilan o'zlarining shaxsiy qadriyatlarining tarkibi va ahamiyatini chuqur anglagan xolda

uning bilimini oshirishga rag'batlantiruvchi usuldir.

17. O'xshatish- ma'lum xajmdagi ma'lumotning boshqa ma'noda ishlatilishini nazarda tutuvchi vaziyatlar bilan bog'liq: bunda o'quvchilar etiboriga real ekologik muammolarni, hayotiy vaziyat SKV masalani o'zida aks ettiruvchi o'xshatilgan o'quv vaziyatlari "nusxalar" taqdim etiladi. Izlanishlar o'xshatishning to'rt asosiy to'rini keltirib chiqarishga yordam berdi: rollarni ijro etish, tematik (mavzuga doyr) izlanishlar, kompyuterli model lashtirish va boshqa o'yin usullari.

18. Rollarni ijro etish ananaviy xolatda berilgan vaziyat yoki aniq savol bo'yicha o'quvchilarga aniq va ravshan qadriyatlar bilan qandaydir shaxs rolini, misol uchun, maxalliy boshqaruv organi xodimi, fermer, ekolog, istemolchi rolini ijro etgan xolda yechim topish taklif etiladi (bazi xollarda roli ijro etilishi kerak bo'lgan subektlar sifatida xatto hayvonlar yoki afsonaviy kaxramonlardan ham foydalanish mumkin. Bunday vaziyatlar "teatrlashtirilgan uyinlar" nomi bilan mashxur bo'lib, odatda kichikroq yoshdagi o'quvchilar uchun muljallangan).

19. Aloyida misollarni o'rganish usuli o'qituvchi boshqaruvi asosida konkret ekologik masalani taxtil qilishni anglatib, bu jarayonda o'quvchilar berilgan konkret masalani o'rganish va xulosalar chiqarish uchun guruxlarga birlashib asosan ikkilamchi axborot manbalarida (misol uchun, o'qituvchi taqdim etadigan bosma materiallar, taklif etilgan ma'ruzachilar nutqlari, filmlar, videotasmalarda) o'z aksini topuvchi tajriba orttiradilar yoki mavjud tajribani rivojlantiradilar.

20. Modellastirish biror-bir tabiatdagi, laboratoriyadagi, xattoki jamiyatdagi voqea (xodisa)larda sodir bo'layotgan asosiy mezonlarning qayta tiklanishiga qaratilgan. Modellar model tarkibiy tuzilishining unsuri sifatida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab analogiyalar asosida yaratiladi.

21. Tekshirish USULI boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish. ma'lumotlarni taxlil qilish, xulosalarni tayyorlash va ularni taqdim qilishni nazarda tutadi. Tekshirish garchi loyixa doirasida yoki muammoni yechish jarayonida o'tkazilishi mumkin bo'lsa ham. "avtonom" o'qitish usulini aks

ettiradi. Oddatda tekshirish anketa, surovnomma (ortyupgshgez) va individuumlarning fikrlari haqida hamda ularning tekshirilayotgan masalaga bo'lgan xulosalarini bilish uchun o'tkaziladigan intervyular yordamida o'tkaziladi. Tekshirish markazlarida o'quvchilar bo'ladi. Bu usul kommunikatsion va izlanuv ko'nikmalarning rivoji hamda keng kulamdagi masalalar bo'yicha xabardorlikni oshirish nuqtai nazardan juda ham samaralidir.

22 Falsafiy izlanishlar - bu atrof-muhit va yoki jamiyatga hamda ularning axloqiy asosiga tasir ko'rsatib undanda chuqurroq motivatsiyani o'rganishga va insoniyat faoliyati oqibatlariga asoslangan yondashuvdir.

23. ssenariylar gipotetik muammolar, ularning oqibatlari va mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ularni yechimlarining tahlili bo'lib, kritik parametr va gipotezalarning qator alternativ kombinatsiyalarini ko'rib CHIQISH asosida amalga oshiriladi. Ssenariy yordamida ekstrapolyatsiya uslubini qo'llagan xolda o'zgarishlarning oqibatlarini bashorat qilish harakatlari bajariladi.

24. Ishlab chiqarish tajribasi. O'quvchida, odatda ishchida, aniq bir joyda ma'lum davrda boshqa shaxslar hamda atrof-muhit orasidagi o'zaro aloqa orqali shakillangan bilimlar, ko'nikmalar, xissiyotlar va qarashlar tizimi.

Bu barcha masalalrni umumlashtirib shunday xulosaga kelish mumkin-ki, jamiyatdagi har bir kishi tabiyatdagi bo'layotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lishi va uning xavsizligini ta'minlashga ma'suldirlar. Bunda avvalambor har bir shaxsda ekologik madaniyat shakillangan bo'lishi kerak.

II BOB O'RTA OSIYO MINTAQASIDAGI EKOLOGIK HOLAT

2.1 Ekologik xavsizlik ko'rsatkichlari

3.1.Suv resurslari.

3.1.1.Suv resurslarining sifatini muhofaza qilish va ichimlik suvi bilan taminlash.

3.1.2.Okeanlarni. dengizlarning barcha xillarini (tiplarini) va qirg'oq buyidagi o'lkalarni (rayonlarni) muhofaza qilish.

3.2. Yer resurslari.

3.2.1. Yer resurslarini rejalash va boshqarishda integratsion yondashuv.

3.2.2. Nozik ekosistemalarni boshqarish: cho'l va qurg'oq mintaqalari.

3.2.3.Nozik ekosistemalarni boshqarish: tot mintaqalarni barqaror rivojlanishi.

3.2.4. Qishloq xo'jaligini va qishloq xo'jalik hududlarini barqaror rivojlanishini taminlash.

33. Atmosfera.

3.3.1. Atmosferani muhofaza qilish.

3.4. Chiqindilar.

3.4.1.Qattiq chiqindilarni qayta ishlash va kanalizatsiya masalalari.

3.4.2. Zaharli kimyoviy moddalarni qayta ishlash.

3.4.3.Xavfli chiqindilarni qayta ishlash.

3.4.4. Radiativ chiqindilarni qayta ishlash va zararsizlantirish.

3.5. Turli tabiiy resurslar.

3.5.1. Cho'llanish bilan kurashish.

3.5.2. Bioxilma - xillikni saqlash.

3.5.3.Ekologik sof biotexnologiya.

2.2 Ekologiya tanazzulini yengib o'tish muammolari

Ekologik tanazzul degani – geografik muhit va uning ichida sodir bo'lgan o'zgarishlar tufayli inson yashashi uchun ma'qul bo'lmagan xolatga kelmog'idir. Tabiiy muxit inson va umuman, jamiyatning yashash sharoitini ta'minlaydigan asosiy manba bo'lgani uchun ekologik tanazzul muqarrar ravishda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tanazzulga aylanadi.

Ekologik tanazzulning ikkita asosiy sababi bor: bular iqlimning o'zgarishi va atrof-muhitga antropogen (ya'ni inson tomonidan) bosim o'tkazishdir. Har ikkala xolda ham jamiyatda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Insoniyat tarixi juda ko'p ekologik tanazzullarni boshidan kechirgan va ularning har qaysisi jamiyatda juda jiddiy evrilishlarni maydonga keltirdi. Insonning tabiiy omillardan karamligi juda uzoq vaqt mobaynida tashqi kuchlar ta'sirining oqibati sifatida qabul qilinib kelingan, insonning tevarak muhitdagi o'zgarishlarga munosabati stixiyali harakterga ega bo'lgan. Xabashistonda musson yog'inlarining kuchayishi Nil o'zanini botqoqlashtirishga olib kelgan va aholi janubga ko'chishga majbur bo'lgan. Quyi Misr qashshoqlasha borgan va mintaqadagi siyosiy va mintaqaviy ahamiyatdan maxrum bo'la borgan. Iqlim qurg'oqroq bo'lsa, odamlar joylariga qaytishgan va kadimgi Misr davlaganing kudrati yana o'sa boshlagan.

Qadimgi shumerlar xaddan ziyod ko'p sug'orish natijasida Tigr va Yevfrat daryolarining quyi oqimida tuzlarning ko'payib ketishga sababchi bo'lishgan va Shumer madaniyati barbod bo'lgan. Endilikda faqat arxeologlariga: Messopotamiyada eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri bo'lganiga guvoxlik berishlari mumkin.

Inson — biologik turlardan biridir, shuning uchun ham u istasa-istamasa tabiat, qonunlariga bo'ysinishga majbur. Bironta ham joyni tur uning ekologik muhitida yakkayu yagona xo'jayinga aylanib olsa, u ekologik tanazzullardan xech qayoqqa kochib qutula olmaydi. Uning ixtiyorida faqat uchtagina chora qoladi yoki uvda orqaga ketish — tiriklay chirish xolati yuz beradi va oxip-pirovardida. uning mavjudligi barham topadi: yoki o'zgarib, o'zining yangicha tarzdagi fe'li-atvorini

ishlab chikadi, tabiat bilan yangicha aloqalarini barpo etadi, yangi ekologik muhitni shakllantiradi yo o'zi uchun yanga bir vatan qiladi, yangi makonni yaratab oladi.

Avvallari bunday evrilishlar ayrim mintaqalarda sodir bo'lgan. Qadimgi Shumer ekologik tanazzuldan chiqish yo'lini topa olmadi va xalok bo'ldi. Sug'oriladigan dehqonchilikning yangi shakillarini topgan (suv qo'yilgan cheklarda sholi yetishtirish va ayni vaqtda baliq urchitgan) qadimgi Xitoy Ekologik tanazzuldan o'tib oldi va boyib ketdi. U o'z sivilizatsiyasini barpo etdi va turmushlarini qayta qurib, tanazzuldan o'ta olmagan qo'shni xalqlarni haqli ravishda varvarlar deb xisoblay boshladilar.

Quyoshning faolligiga bog'lik tarzda sodir bo'ladigan namlikning davriy o'zgarishlari ko'chmanchi xalqlar o'rtasida ommaviy migratsiyalarni vujudga keltirgan, bu esa Yevraziyaning siyosiy qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborgan. Xalqlarning katta-kalon qo'shmlari oqibatida turli ixtiloflar tug'ilgan, urushlar kelib chiqqan, bir xil davlatlar barbod bo'lgan, ularning o'rnida boshqalari paydo bo'lgan. L.N. Gumilev uzoq muddat mobaynida (meloddan avvalgi III asrdan melodiy XVII asrning oxirigacha) Dashti kabirdagi namdanish xududlarining o'zgarishlarini tahlil qilib chiqib, unda juda aniq qonuniyat bor ekanini kashf etgan. Har gal navbatdagi, qurg'oqchilik boshlanishi bilan ko'chmanchilar qadrdon dashtlarini tark etishgan. Kudratli kabilaviy ittifoqlar parchalanib ketgan, odamlar kichik-kichik guruxlarga bo'linib suv izlashgan, o'z oldilariga chorvani sug'orish va o'z qorinini tuydirishdan boshqa maqsad quyishmagan va aksincha, «dasht zonalarida namlikning ortishi bilan — deb yozadi L.N.Gumilev. -kuchmanchilar otalarining yurtiga qaytishgan, turt tuyoqli boyliklarining mikdori orta boshlagan, mulkchilik oqibatida siyosat bobida ham jangarilik kuchaygan, siyosatdaga asosiy niyatlar o'zgargan, asosiy intilish, maqsad endi omon qolish emas, ustun bo'lish shtiyoqiga aylangan».

Antropogen tazyiq oqibatida tabiiy sharoitlarning o'zgarishi ham sivilizatsion markazlar o'rnini o'zgartiribgana qolmay, davlat va xokimiyat tizimining yangi shakillarini ham vujudga keltirgan. Buning yorqin misoli XV asrning boshlarida Rossiya davlatining boshiga tushgan ekologik tanazzul edi. U noqulay iqlim sharoitlari tufayli- shuningdek, landshaftga xaddan ziyod ortiqcha antropogen bosim

o'tkazish va demografik portlash oqibatida maydonga kelgan edi. Shu paytga qadar Rusda yashash sharoitini taminlab kelgan asosiy omil o'rmonlar va boshqa o'simliklarni yondirib yer ochish yo'li bilan qilinadigan dehqonchilik bo'lgan. Ammo XV asrga kelganda u ko'payib ketgan axolini ortiq boqolmay qolgan. Rusda ijtimoiy-iqtisodiy tanazzul boshlangan. Bunday tanazzul vaqtida hamisha bitta universal qoida amal qila boshlaydi — agar odamlar turmush darajasi va yashash sifatining muttasil pasayib borishini o'zlari to'xtata olmasalar, jamiyat va davlatning ixtiyoriga isloxotlar o'tkazish xuquqini berib quyadilar. Bunday xollarda davlat jamiyatga nisbatan cheklanmagan xuquqlarni o'zlashtirib oladi. Xokimi mutlaqlik bosqich mabosqich kuchaya boshlaydi, tanazzul sharoitida jamiyat rivojlanishning safarbarlik yo'liga ko'chiriladi. Uning asosida esa hamisha xo'jalik yuritishning iqtisodiyotdan tashqaridagi omillari (majburlash).

Tabiiy boyliklardan ekstensiv foydalanish, mustamlakachilik yotadi, Y.Klyuchevskiyning so'zlariga qaraganda, ayni ana shular rus tarixini tutib turuvchi ustunga aylandi.

Buning oqibatida Rossiyada yangicha ekologik muxit vujudga kela boshladi. Buning asosida esa yangicha tipdagi dehqonchilik yotardi. O'z vaqtida G'arbiy Yevropa ham bu yo'lni bosib o'tgan. Biroq u yerda bu davr nisbatan ancha qisqa muddatni egallagan. Imkoni bor yerlarning hammasi tezgina xaydalib bo'lingan va bu xol odamlarni xosildorlikni oshirishning yangi yo'llarini izlashga undagan, ya'ni ular intensiv dehqonchilikka o'tishga majbur bo'lishgan. Rossiya davlatining rivojlanishi boshqa yo'ldan ketdi. Bu yerda maydon katta edi, bimalol ularni kengaytiraverish mumkin edi. Shuning uchun mustamlakalashtirish va yangi maydonlarni xaydash davri bir necha asrga cho'zilib ketdi. Ammo davlat chegaralarini kengaytirish hamma vaqt markazlashgan davlatni kuchaytirishni shyuhida ijtimoiy munosabatlarni talab qiladya. Mana shularning hammasi Rossiyaning siyosiy tarixining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab bergan.

Ko'ramizki, insoniyatning iqtisodiy va siyosiy tarixi hamisha tabiiy sharoitlarga bog'liq bo'lib kelgan. Mutlaqo ayonki, bizning davrimizda ham inson bilan uning atrofini qurshab olgan muxit o'rtasidagi o'zaro mulgosabatlar Hozirgi zamon tarixi

uchun muayyan ahamyatga ega bo'ladi. Ayni anashu munosabatlar turli xil ixtiloflarni maydonga keltirmog'i mum» negaki, insoniyat o'zi qilishi mumkin bo'lgan ishlarning sarxadiga yetib keldi. Kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan ixtiloflarning aks sadolari bugunning o'zidayoq quloqlarga chalinib qoldi — davlatlarning Iroq. Kaspiy nefti uchun kurashi, jahonning neft chiqadigan boshqa xududlaridagi buning dalilidir.

Yana shunisi ham mutlaqo ayonki, turli davlatlar tabiat tomonidan qo'yiladigan cheklashlarni turlicha qabul qiladilar va turlicha tarzda rivojlanish yo'llarini izlaydilar, bu esa ekologik tanazzulni yenpyu o'tii! hamisha muqarrar tarzda siyosiy moxiyat ham kasb etgan bo'ladi.

Butun sayyoramiz va jahon hamjamiyati rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga qaratildi. Birinchi bo'lib, aniq fanlarning gapira boshladi. XX asrning boshlarida taniqli rus olimi V.I.Veriginsonning xo'jalik faoliyatini tabiiy o'zgarishlarni yaratuvchi kuchlarni taqqoslagan edi. Oradan ko'p o'tmay. E.Lerua va Teiyer de Sharden tushunchasini (aql-idrok sferasi) muloqotga kiritdilar. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi noosfera davri degan nom oldi. Buning ma'nosi shundayki, hozirgi davrda hamkorliklar, muvozanatdagi rivojlanish Yer yuzida insonning saqlanib qolishining eng zarur sharti deb qaraladi. V.P.Vernadskiyning fikriga ko'ra, noosfera — biosferaning bosqichidir, bubosqich unda insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanish bilan bog'liq. Inson tabiat qonunlarini idrok etib, rivojini mukammallashtirib borib, Yer yuzida o'zining ta'sir kuchi yetadigan joylari jarayonlarning borishiga muayyan tazyiq ko'rsata boshlagan. buni o'z faoliyati bilan uni ancha-muncha o'zgartiradi. Shuning uchun V.I.Vernadskiyning fikriga kura, jamiyatning bundan keyigi rivoji faqat bitta shart bilan ro'y berishi mumkin — insoniyat nafaqat jamiyatni o'zining rivoji uchun, balki butun biosferaning taraqqiyoti uchun ham masuliyatni zimmasiga olmog'i zarur.

Noosfera tushunchasidagi eng asosiy narsa — jamiyat bilan tabiatni o'zaro aloqasini oqilona tarzda tashkil qilish zaruriyatidir, tevarak muhitni yomonlashtirishga olib keladigan tabiatga yaxshiylarcha munosabatga qarama-qarshi kuyiladi.

Agar asr boshida jamiyat va tabiatning yangi bosqichga o'tishi haqidagi qarash uncha katta bo'lmagan bir gurux olimlarning ishi bo'lgan bo'lsa, bugunga kelib, u juda keng ko'lamda jamoatchilik tomonidan tan olinyapti. Buning dalili sifatida Rim klubi faodmyal favkulodda darajada keng shuxrat topganini, ekologik harakati miqyosida juda keng tarkalganini, bir qator yirik xalqaro tadbirlarni Jahondagi davlatlarni mutlaq ko'pchiligi ishtirok etganligini ko'rsatish mumkin.

Istagan tirik jonzo'tning rivojlanishi tevarak muhit parametrlaridagi o'zgarishlarning miqdori juda qattiq cheklangan sharoitidagina amalga oshmog'i mumkin bu cheklashlar darajasini belgilash uchun akademik N.Moiseev ilmiy muomalaga. "ekologik imperativ" degan tushunchani olib kirdi. Imperativ degani - xulq-atvor, qat'iy talab, umumbashariy manaviyat konuni. Unga hamma odamlar buysunmog'i darkor. Kant etikasida imperativ shunday harakat qilishi taqozo etadiki sening xulq-atvoring hammaga mushtarak qonunchilik uchun ibrat bo'lib xizmat qilsin. Buni ekologiya soxasiga tadbiiq qiladigan bo'lsak, shunday mano kelib chiqadi - inson faoliyatining tug'izligi va uning tabiatga tayziqi juda qattiq cheklangan bo'lmog'i va nazorat kilinmog'i kerak. Inson faolliigi ma'lum chegaragacha yo'l qo'yiladi. Xech qanday sharoitda uning bu chegaradan tashqariga chiqishga haqi yo'q.

Ekologik imperativ hamisha mavjud bo'lgan. Har xil xalqlarda u turlicha munosabatini belgilaydigan ma'naviy talablar juda qattiq bo'lgan. U paytlarda odamlar o'zlarining tabiat qarshisidagi ojizliklarini, uning qaxriga duch kelganlarida nochor qolishlarini juda o'tkir xis qilganlar. Tabiatga bunday munosabatning yorqin misoli sifatida shimolda, Sibirda, Uzoq Sharqda yashaydigan kam sonli tub aholining ekologik imperativini ko'rsatish mumkin. Bu imperativning ko'pgina belgilari bugun ham saqlanib qolgan. Dastavval, bu tabiatga Jonli mavjudot deb qarash. Tabiatning har bir obekti jonli mavjudot sifatida qabul qilinadi. U ham odamga o'xshab iztirob chekadi, og'riqni xis etadi. Shuning uchun ham odamlarning fe'li atvori, munosabatlari qat'iy koidalar kolipiga tushgan: tabiatdan yashashi uchun zarur bo'lganidan ortiq xech narsa olma, jonivorni bir o'q bilan uzil-kesil qulatishga imoning komil bo'lmasa, unga o'k

uzma. o'sib turgan daraxtni kesib o'tin qilma, buning uchun qurigan shox-shabblardan va qulagan daraxtlardan foydalan va x.k. va x.k.

O'ziga xos ekologik imperativ neolit inqilobidan keyin ham mavjud bo'lgan - bu paytlarda insoniyat tevaragida hozirgi ekologik muhit shakllanib bo'lgan edi. Sinovlar va aldanishlar oqibatida, avvaliga stxiyali tarzda, keyin ilm-fan yordamida odamlar o'zlarining fe'li-atvorlarini va faoliyatlarini yo'llarini o'rganib oldilar. Daraxtlar o'tkazib. ximoya to'siqlari qila boshladilar, daryolarning manbalarida va qirg'oqlarida daraxt kesishni cheklab kuydilar va xatto ta'qiqladilar ham. To'g'ri, bu gaplar ayrim mintaqalarga yoki xo'jalik faoliyatining ayrim soxalariga taaluqli edi. XX asrda insoniyat shunday bir xududga yetib keldiki, umumsayyora ko'lamida fel-atvor normalarini ishlab chiqmasa, inson bilan tevarak-muxit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risida mushtarak qonun yaratilsa iloj yo'qligi ravshan bo'lib qoldi. Hozirgi jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi eng asosiy ziddiyat - tabiatdagi harakatchan muvozanatni boshqarishga urinayotgan insonning tabiatni o'zgartirish bobidagi faoliyatining xaddan tashqari zo'rayib ketganidir. Daryo xech kimga ziyon-zaxmat yetkazmasdan, aytaylik, bir bochka sanoat chiqindilarini o'ziga singdirib, yo'q kilib yuborishi mumkin, lekin u bunaqa bochkalarning milliontasini o'zlashtirishga ojizlik qiladi-da. Bunday bo'lsa, u hamma tirik mahluqotni kirib tashlashga qodir bir oqava irmoqqa aylanib qoladi. Biosferani yaxlit oladigan bo'lsak, uning ham o'z chegarasi bor va bugun ana shu chegaraga yetib kelgan. XX asrning 60-yillaridayoq MDU professori V.M.Kovdo tomonidan amalga oshirilgan xisob-kitoblar insoniyat 2000 yilda kelib chiqishiga ko'ra organik harakterga ega bo'lgan chiqindilarni tabiatdan ko'ra ortiqroq chiqargan ekan. Butun biosfera inson faoliyati bilan kurashishga ojizlik qilib qoldi, unda qayta tiklanmaydigan o'zgarishlar boshlandi. Atmosfera tarkibi o'zgaryapti, xavo tarkibida kislorod kamayib boryapti, nafasni bug'adigan va boshqa xildagi zaharli gazlar ko'payib ketmoqda. Buning oqibatida kislotali yomg'irlar yog'adigan bo'lib qoldi. Kislotali yomg'irlar xayron qoladigan darajada muntazamlilik bilan gox dunyoning bir mintaqasiga, gox ikkinchi mintaqasiga yog'ib turipti. Bular esa o'z navbatida suv xavzalari bilan tuproq tarkibidagi kislotali ko'payishiga sabab

bo'lmoqda, shu zararli gazlarning ko'payib ketishi oqibatida "issiqxona ta'siri" (parnik effekti) degan xodisa kuchaymog'i aniq. Bu xodisaning moxiyati shundan iboratki, atmosfera kalinlashgan uglerod katlami quyosh radiatsiyasini Yerga bemalol o'tkazib yuborgan xolda issiqlik nurlanishining atmosferaning yuqori katlamlariga qaytishini to'xtatib qoladi. Shunga muvofik atmosferaning quyi katlamlarida harorat ko'tariladi. 70-yillarda modellar yasab o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, atmosferada to'planib qolgan zaharli gaz ikki barobar oshsa, buning oqibatida yerda harorati o'rtacha 2.9 gradus ko'tarilar ekan. Bu xolda qutb xududlarida, mantu muzliklarda muz va qorlarning erishi yerlarning juda ko'p qismini suv bosadi. Dengiz satxi atigi 1 mtr ko'tariladigan bo'lsa, masalan, Bangladesh o'z yerining 11 foizini yo'qotadi. Misr xududi joylashgan daryo xavzalaridagi xududlari deyarli tula tarzda suv ostida qoladi. Hozir bu xududlarda bir necha o'n millionlab yaxoli yashaydi ularning boshiga qochoqlar qismati tushmog'i mumkin. Bundan tashqari, haroratdagi muvozanatning yuqolishi tufayli ko'pgina turdagi o'simliklar va jonivorlar dunyosining vakillari nasl berish qobiliyatidan maxrum bo'ladi. Bu xolda jahon qishloq xo'jaligini qanday qismat ko'tayotganini oldindan aytib berish juda qiyin.

Sayyoradagi haroratning isib ketishi atmosferada xavo oqimlarining harakati jarayoniga tasir ko'rsatadi. Bu esa suv toshqinlari, qurg'oqchilik kabi xodisalarni vujudga keltiradi. Shu paytgacha xech kachon qattiq sovuk bo'lmagan joylarda kish sovug'i juda qattiq bo'lishi mumkin. Bularning bari g'oyatda xalokatli xoldardir. Qurg'oqchilik va suv toshqinlari dunyoning ko'pgina mintaqalarida ochlikni tug'diradi. Ochlik esa kurolli mojarolardan kura ko'proq odamning joniga qasd qilishi mumkin. Iqlimning o'zgarishi bo'yicha xukumatlararo komissiya shunday xulosaga kelganki, agar ishlab chiqarilayotgan zararli gazlarning miqdori darhol 60 foizga qisqartirilmasa, tabiat yuz berayottan o'zgarishlarga moslasha olmaydi, inson esa ularni nazorat qilishni eplolmay qoladi.

Iklimdagi o'zgarishlar iqtisodiyot soxasida ham juda og'ir oqibatlarga olib kelishi muqarrar. Atmosfera tarkibidagi Zaharli gazlarning ikki baravar ko'payishi natijasida iqlimda sodir bo'ladigan ilish ba'zi bir xisob-kitoblarga qaraganda, jahon

iqtisodiyotiga yiliga 300 milliard dollar zararni tashkil qiladi. Shu jumladan, bu zarar Yevropa uchun 63.6 milliard dollarni, AQSh uchun 61 milliard, Xitoy uchun 16.7 milliard dollarni tashkil qilmog'i mumkin. Shuningdek, o'rtacha global haroratning 2.5 gradusga ko'tarilishi yiliga qo'shimcha tarzda 215 ming odamning vafot etishiga, bezgak bilan qo'shimcha ravishda 200 million odamning xastalanishiga, iqlimning ilishi bilan bevosita bog'langan ochlik esa 2010-2030 yillar oralig'ida 900 million odamning o'limiga sabab bo'lishi kutilmoqda.

Nisbatan yaqinda yana bir jiddiy xavf-xatar aniqlandi. Ishlab chiqarishda va kundalik turmushda freonning ommaviy tarzda qo'llanishi Yerning ozon katlamini barbod qilar ekan. Ozon katlami esa Yerni radiatsiyaning ultra binafsha nurlaridan himoya qiluvchi ekran vazifasini o'taydi. Bir qator tadqiqotchilar teri rakining ko'payib ketganini inson ultrabinafsha nurlarining ta'siri kuchaygani bilan bog'laydi. Quyosh radiatsiyasining yerdagi xayotga xaloqatli ta'siri shu qadar jiddiyki, 1987 yilda ko'pgina mamlakatlar 2000 yilga borib, freon ishlab chiqarishni to'xtatishga rozi bo'lishdi. Rivojlangan mamlakatlar esa rivojlanayotgan mamlakatlarga yangi texnologiyaga o'tish uchun zarur bo'lgan harajatlarni koplashni buyinlarga olishgan.

So'ngi o'n yillikda sayyoradagi xayotning rangba-rangligini asrab qolish muammolari favqulotda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Avvalgi 400 yil mobaynida yer yuzidan har o'n yilda bitta tur yo'q bo'lib ketardi. Hozir esa yer har yili bittadan turdan maxrum bulyapti. Eng yomoni shuki, bu turni odam "yeb" bitirayotgani yo'q yoki unga ongli ravishda qiron keltirgani yo'q, balki bir tur xayot kechirishi mumkin bo'lgan shart-sharoit yo'qolib ketdi. Hammaga yaxshi ma'lum bo'lgan losos daryolarning yuqori o'zaniga uvildiriqlarini quyishadi. U yerda suvning harorati 14 gradusdan oshmasligi kerak. Suvning harorati yarim gradusga ko'tarilsa, bas -uvildiriq nobud bo'ladi, undan baliq chikmaydi, baliqning butun bir avlodi qirilib ketadi. Bu yerdagi eng xatarli narsa shundaki, biror jonli turni yo'qotar ekanmiz, biz extimol, insoniyatni butunlay boy berayotgandirmiz, chunki bu turni tuzukroq o'rganib chikmay turib, undan judo bulamiz.

Sayyoradagi chuchuk suv zaxiralari xalokatli tarzda kamayib bormoqda. BMT

ma'lumotlariga qaraganda hozirgi paytda zamin axlidan 1.3 milliard kishi sifatli ichiladigan suvga zor bo'lib yashamokda. Hozir shahar aholisining 20 % va qishloq axlining 75 % ning suvga bo'lgan extiyoji kondirilmaydi, shuni ham aytmok kerakki, suvni iste'mol qilish hamma mintaqaga va yashash darajasiga bog'liq ravishda sutkasiga bir kishiga 3 litrdan 700 litrgacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi. Xo'jalik extiyojlari uchun inson yiliga jamiki jahondagi chuchuk suvning 5 foizdan ortiqrog'ini istemol qiladi. Ko'p mutaxasislarning xisob-kitobiga kura, bu jarayon davom etadigan bo'lsa. XXI asrning o'rtalariga borib sayyorada toza chuchuk suv boyliklari butunlay tamom bo'ladi. Chuchuk suv nafaqat odamlarga balki o'simliklar va xayvonot dunyosiga ham kerak. Chuchuk suvsiz, umuman yer yuzida xayot yo'q. Bundan ortiq bo'lca ortiqki, lekin sira kam bo'lmagan darajada xatarli narsa ichki suv xavzalarida har xil issiq oqava suvlarni tashlash natijasida suvlar haroratining ko'tarilishidir. Hozirgi paytda ariqlarga, anxorlarga tashlanadigan bunaqa oqava suvlarning miqdori yiliga 6 million tonnadan ortib ketdi. Bunday sharoitda suvda yashaydigan organizmlarning tabiiy yashash sharoiti o'zgaradi, bunaqa suvlarda kislorodning erish miqdori kamayadi, moddalar almashinuvining tezligi o'zgaradi. Daryolar ko'llar va suv omborlarining ko'pchilik axli nobud bo'ladi, qolganlarining rivoji sustlashadi. Ekiladigan tuproq qashshoqlashib bormoqda. Insoniyat allaqachon 20 million gektaridan ortiq ekiladigan yerdan ajradi. Bu bugun foydalanilayotgan yerdan ko'proqdir.

Aholi uchun uy-joy qurish, sanoat korxonalar, qurilishi, transport yo'llari, kon ishlari, yerlarning cho'l va saxrolarga aylanishi, shurlanish va xo'jalik faoliyatining boshqa oqibatlari har yili ekiladigan yerlardan 70 ming kvadrat kilometri xo'jalik oborotidan chiqib ketmoqda. Faqat ekin maydoining qisqarishi hisobiga insoniyat har yili 30 million tonna g'alla yo'qotadi. Tuproq resurslariga qishloq xo'jaligining o'zi ham yomon ta'sir ko'rsatadi. Dehqonchilikni yuritishdagi noshudlik, agrotexnikaning ibtidoiyligi suv va shamol eroziyasiga olib keladi. Erigan qor va yomg'ir suvlari har yili dengiz va daryolarga millionlab tonna tuproq tarkibidagi chirigan go'nglar va boshqa qimmatli narsalarni oqizib ketadi. Butun dunyoda ekiladigan yerlarning 35 % eroziyaga chalingan. Bizning mamlakatimiz quruq

yerlarni o'zlashtirish boshlangandan ko'p o'tmay, shamol eroziyasining juda xunuk oqibatlariga duch keladi. Juda katta maydonlarda to'zonli bo'ronlar yerning xosildor katlamini uchirib ketdi. Shimoliy Kavkazda, quyi Povolshada shunday bo'ldi. Mutaxassislarning aytishicha, tuproqning yemirilishi sababidan mamlakat 15-20 yil mobaynida, o'zining hamma unumdor yerlaridan ajralib qoladi.

Sayrayomizdagi o'rmonlar yiliga 6 million gektar tezlik bilan yo'qolib bormoqda. Buning oqibatida atmosfera har yili 75 milliard tonnaga qadar kislorodni kam olyapti. 70 yillarning boshidayok AQSh yerlaridagi hamma o'simliklar ishlab chiqargan kislorod sanoat, transport, hayvonlar va odamlar iste'mol qilgan kisloroldan kamroq bo'lgan. Mana bir necha o'nlab yildirki, bu davlat kislorod kamroq bo'lgan davlat xisoblanib, kislorod istemol qilish bobida boshqa davlatlarning boquvchisi. Yuz yil muqaddam AQSh xududidagi yerlarning to'rtdan uch qismi yerlar bilan koplangan edi. Hozirgi paytda esa bu o'rmonlarning to'rtdan bir qismigina qoldi, xolos. Birgina 1996 yilning o'zida 150 ming kv km ga teng.

Tabiatdagi qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar ro'yxatini yana uzoq davom ettirish mumkin. Buning oqibatida insoniyat borgan sari keskinroq shakllarda to'laqonli oziq-ovqat, toza suv, xavo, mineral resurslarning yetishmasligi kabi xodatlarga ro'para kelmoqda. Xademay u yana bir tanqislik bilan - kislorodning yetishmasligi bilan to'qnashadi. Bularning bari ekologik tanazzulning harakterli belgilari va ayon nishonalaridir. Tabiatning yemirilishi bilan birga insoniyatning ham yemirilishi boshlandi. Rak, SPID, yurak-tomir kasalliklari - bir qator olimlarning fikricha, xali xolva, hamir uchidan patirgina xolos. Bular bo'lg'uvsi real xaloqatdan darak berayottan birinchi kaldirgochlar.

2.3 O'zbekiston Respublikasining atrof-muhit bo'yicha xalqaro axborot tizimi

O'tgan totalitar rejim davrida atrof- muhitni himoyalash va undan oqilona foydalanish bo'yicha insoniyatga yetarli darajada tushuntirish. targ'ibot ishlari amalga oshirilmaganligi tufayli, odamlarning atrof-tabiiy muhitga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo'lganliklari oqibatida bugungi kunga kelib yer yuzida

ekologik muammolar dolzarb masalaga aylanib ulgurdi. Jumladan respublikamiz ham dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turgan o'ta dolzarb ekologik muammolardan xoli emas. Orol dengizining qurib borishi xavfi g'oyat keskin muammoga aylanganligi buning isbotidir. Ushbu muammo nafaqat respublikamiz uchun, balki Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uchun ham juda muhim ahamiyat kasb etadi.

60-70 yillarda suv resurslarining xaddan tashqari ko'p miqdorda samarasiz ishlatish, sug'oriladigan yerlarda eng yuqori miqdorda turli zaharli kimyoviy moddalardan foydalanish, almashlab ekishni bug'ib quyish, paxta yakkaxokimligiga keng yo'l ochish, yerlarning meliorativ sharoitiga e'tibor bermaslik joylarning tabiiy ekologik muhitlariga qarab turli maxalliy muammolarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Qadimdan xalqimiz orasida "Bir narsani yo'qotmay turib, ikkinchi narsaga erishib bo'lmaydi". degan xikmatli so'z yuradi. Sobiq tuzum davrida, ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirish maqsadida, cho'llarni o'zlashtirishga tushdilar. Xolbuki, o'zlashtirilgan cho'l tuproqlarining oddiy lalmikor tuproqlarga nisbatan suvga bo'lgan extiyoji bir necha barobar katta. Bu muammo ham hamirdan qil sugurgandek osongina xal etildi, ya'ni Amudaryo va Sirdaryoning Orolga boradigan yo'nalishini O'zlashtirilayotgan cho'l zonasiga burdilar. Suvdan ayovsiz, yaxshiylarcha foydalanish natijasida Orol dengiziga kuyiladigan suvning miqdori kamaydi. Bazilar uylagan maqsadiga erishdi, ya'ni maxsuldorlikni oshirish uchun yerlar kengaytirildi. Ammo bizga undan ikki barobar qimmatga tushgani - Orol dengizining batamom qurib qolish xavfi tug'ildi. 2000 yil Prezilentimiz N.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkilotida bo'lib o'tgan ming yillik sammiti 55-sessiyasida Orol muammosini yana ilgari surdi va bunda Orolning muammoga aylangani e'tirof etildi.

Aslida Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishga borib taqaldi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklarda Xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun xududi buylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab axoli punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng kulamdagi fojia - Orol xalok bo'lishi ni

anglandi.

1960 yilda Orol dengizining satxi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53.4 metrni, suvning xajmi 1083 kub kilometrni, suvning yuzasi 68.9 ming kvadrat kilometrni va minerallashuv darajasi bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan edi.

Dengiz transporti, baliq xo'jaligi, iqlim sharoiti jixatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 kub kilometr suv kelib kuyilar edi.

2004 yilga kelib, Orol dengizidagi suvning satxi-30.7 metrga, suv xajmi-115 kubkilometrdan kamroqqa, suv yuzasining maydoni esa 17.6 ming kvadrat kilometrga tushib qoldi. suvning minerallashuvi 72.6 g/l gacha ortdi.

1997 yil fevralda Markaziy Osiyodagi besh davlat boshliqlarning BMT. Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida Almatida bo'lib o'tgan uchrashuvida Orol muammosini xalqaro etish bo'yicha tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi - Orolni qutqarish xalqaro fondining ancha ishchan tarkibi va uning negizida harakatchan ijroya qo'mitasi to'zildi. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan xolda jahon jamoatchiligi etiborini mintaqaning ekologik muammolariga qaratildi.

4. O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish bo'yicha milliy harakatlar, ustuvorlar va muljallar.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki davridayoq davlatimizda ekologik muammolarning oldini olish va ushbu masala yuzasidan qonunni ta'sir chorasini belgilash maqsadida yetarli darajada xuquqiy xujjatlar majmuasi yaratildi. Konstitutsiyaning tegishli moddalarida fuqarolar atrof-tabiiy muxitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishlari belgilab qo'yilgan. Shundan kelib chiqib 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi hamda ekologik muammolarning oldini olishga qaratilgan, yer, suv, o'rmon, yer osti boyliklari haqida kodekslar, shuningdek, atmosfera xavosini, yer usti va osti suvlari, tuproq, o'simlik va xayvonot olamini muhofaza etish bo'yicha ko'plab qonunlar va xukumat qarorlari qabul qilingan. Tegishli tashkilot va korxonalarga aniq topshiriqlar berilgan hamda atrof-muxit va tuproq, yer-osti, suv, o'rmon, mineral resurslar, xavo basseynidan oqilona

foydalanish bo'yicha tadbirlar tavsiya etilgan.

2.4 Orolning ekologik muammolari

Ekologik soxada xuquqiy xujjatlar yaratilishi bilan bir qatorda ushbu soxada nazorat ishlarini olib boruvchi O'zbekiston Respublika» Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tashkil qilindi. Ayni paytda ushbu qo'mitaning viloyatlarda qo'mitalari, tuman va shaharlarda tabiatni muhofaza qilish inspeksiyalari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari ekologik jixatdan og'ir bo'lgan Orol bo'yi va boshqa hududlarga beg'araz xayriya yordami ko'rsatuvchi "EKOSAN" xalqaro tashkiloti hamda mazkur soxa bilan bog'lik faoliyatga ixtisoslashgan ko'plab tashkilotlar faoliyat ko'rsatmokda. Bu mamlakatimizda ekologik muammolarning oldini olishga davlat siyosati darajasida e'tibordir. Hozirgi kunda ekologiya atamasi ham tabiat to'g'risidagi, tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganuvchi fanlar majmuasiga kiritilgan. Ayni paytda respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarda, olib o'quv yurtlarida aloxida fan sifatida o'qitilmoqda. Bundan asosiy maqsad insonlarni ekologik ofatdan qutqarish hamda atrof-tabiiy muhit bilan kerakli va madaniy munosabatlarni yosh avlodga o'rgatish hamda ularning ekologik madaniyatini yuksaltirishga erishishdan iborat.

Prezident I.A.Karimov "ekologik muammo - yer yuzining hamma burchagida ham dolzarb, faqat uning keskinlik darajasi dunyoning turli mamlakatlarida turlicha" ekanligini takidlab, ushbu masalaga "O'zbekiston XXI asr busag'asida xavfsizlikka taxtid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida aloxida e'tibor qaratgan. Ushbu kitobda Prezident ushbu masalani muhimligini quyidagicha belgilaydi: "Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin taxtidlarni qo'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi aloxida etiborga molikdir". Ekologik xavfsizlik va atrof muhitni himoyalash va mavjud tabiiy muhitni sof xodatda saqlab, kelajak avlodlarga yetkazishga qaratilgan barcha say-harakatlar davlatimiz milliy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

1994 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit bo'yicha xalqaro axborot tizimida mustaqil ishtirokchidir. Bunda asosiy vazifa davlat ilmiy-texnika

axboroti fondiga yuklatilgan. Milliy ajratilgan markaz (MAM) faoliyati uning tashkil etilganidan boshlab, respublikamizdagi tashkilotlar orasida Infoterra tizimlarini tashkil qilish, axborotlarning milliy manbalari tarmog'ini yaratish, respublikamiz va chet elektron axborot iste'molchilarining surov-extiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan .

1995 yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasida (MAM tomonidan) Tabiatni muhofaza etish faoliyatining aloxida yo'nalishlari bo'yicha malumotlarning maxalliy (lokal) bazasini shakllantirishga kirishildi. Masalan. "Qurilish industriyasi korxonalarida ekologik himoya". O'simliklarni ximoya qilish". "Oqava suvlarni tozalash texnologiyasi". "Orolning ekologik muammolari". "Tuproqning zaharli Ximikatlar bilan ifloslanishi muammosi" kabi yo'nalishlarni aloxida aytib o'tish mumkin.

Hozirgi vaqtda respublikamizda " Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha muljallangan Davlat dasturi" ishlab chiqildi. "Tabiat muhofazasi va O'zbekiston Respublikasi barqaror taraqqiyotining ekologik ta'minlash bo'yicha harakat Milliy rejasi". "O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit gigiyenasi bo'yicha harakat Milliy rejasi". Biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha harakat rejasi va milliy strategiya ishlab chiqilmoqda.

Bu xujjatlarda atrof muhit himoyasi siyosati maqsadlari ifodalangan, strategiyaning asosiy prinsiplari va yo'nalishlari belgilangan.

I.A.Karimovning "O'zbekiston buyuk kelajak sari" asarida ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Unda xususan, quyidagilar takidlanib o'tiladi:

1. Tegishli texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish. Qishloq. o'rmon va boshqa xo'jalik tarmoqlaridagi tabiiy jarayonlarning keskin bo'zlashiga olib keladigan barcha zaharli kimyoviy moddalarni qo'llash ustidan qattiq nazorat o'rnatish. Xavo va suv muhitini insonning hayotiy faoliyati uchun zararli yoki salbiy ta'sir etadigan moddalar bilan ifloslanishini to'xtatish.

2. Qayta tiklanmaydigan zaxiralarni qat'iy mezon asosida iste'mol qilgan xolda tabiiy zaxiralarning hamma turlaridan oqilona foydalanish.

3. Katta-katta xududlarda tabiiy sharoitlarni tabiiy zaxiralardan samarali va kompleks foydalanishni taminlaydigan darajada aniq maqsadga qaratilgan, ilmiy asoslanilgan tarzda o'zgartirish (daryolar oqimini tartibga solish hamda suvlarni bir xavzadan ikkinchisiga tashlash, yerning namini qochirish, suv chiqarish tadbirlarini va boshqalarni amalga oshirish) lozim.

4. Jonli tabiatning butli tabiiy genofondini madaniy ekinlar va hayvonlar ning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak.

5. Shaharsozlik va tumanlarni rejalashtirishning ilmiy asoslanilgan, hozirgi zamon urbanizatsiyasining barcha salbiy oqibatlarini bartaraf etadigan tizimni joriy etish yo'li bilan shaharlarda va boshqa aholi punktlarida axolining yashashi uchun qulay sharoit yaratish zarur.

6. Ekologik kulfatlar chegara bilmasligini nazarda tutgan xolda jahon jamoatchiligi e'tiborini mintaqaning ekologik muammolariga karatish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bugungi kundagi mintaqaviy ekologik muammolarning yechimi bu barcha xalqlarning birdamlikdagi say-harakati hisoblanadi, zero biz kelajak avlodlarimizga o'zimizdan keyin ekologik xavsiz hayot taqdim etishga ma'sulmiz.

III BOB ILMIY KASHFIYOTLARNI BARQAROR RIVOJLANISH VA EKOLOGIK XAVSIZLIKDAGI AHAMIYATI

3.1 Ilmiy kashfiyotlar barqaror taraqqiyot yo'lida

Keyingi yillarda ko'pgina mutaxassislarining diqqatini ochlik muammosini xal qilish yo'llaridan biri sifatida biotexnikaning rivoji jalb qilmoqda. Biotexnologiya – tirik organizmlar yoki hayotiy jarayonlardan maxsulot ishlab chiqarishda yoxud uning shaqlu-shamoyilni o'zgartirishda, o'simliklar navini va hayvonlar zotini yaxshilashda foydalanishdir. XX asr oxiriga kelib jahon global genetik revolyutsiyaga rupapa keldi. Bu revolyutsiya inson faoliyatining juda ko'p jihatlarini o'zgartirishga qodirdir. Biotexnologiyada bir qancha istiqbolli yo'nalishlarni aloxida takidlab ko'rsatish mumkinki. ular allaqachon biotexnologiyada foydalanilyapti yoki yaqin kelajakda amalga oshib qolishi mumkin. Masalan, quyosh energiyasini biokonservatsiya qilish, o'simliklarning fotosintez qiladigan xususiyatlarini o'zgartirish, o'sishning bakterial stimulyatorlarini qo'llash, eksterimal sharoitlarga moslashib, pishib yetiladigan o'simliklarni barpo etish va x.k. Bu soxa muvaffaqiyatining asoslarida fan tomonidan genetik kodlarning kashf qilinishi yotadi. Har bir organizmda har bir gen biror sifatga vorislikni ta'minlaydi. Bunday genni organizmdagi biron xujayraga joylab, uning qarshilik ko'rsatish qobiliyatini o'stiradi yoki parametrlarini o'zgartiradi. Biotexnologiya tabiatni yaxshilash va o'zgartirish imkonini beradi. Bunga qadar bunday vazifalarni seleksiya (chatishtirish) bajarib kelgan edi. Biroq bu yo'l bilan mu'affaqiyatga erishmoq uchun ancha vaqt kerak. Uning hosilini 70% ga ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Biotexnologiya yordamida bunaqa natijalarga bir necha yil davomida va xatto bir necha oylar ichida erishish mumkin.

Hozirgi paytda biotexnologiya eng katta yutuqlariga mutadil iqlim sharoitida ekiladigan ekinlarni yaxshilash soxasida erishdi. Shu munosabat bilan ko'pincha biotexnologiya sha'niga tanqidiy gaplar ham aytilib turiladi. Bu tanqidlarda biotexnologiyani Osiyo va Afrikaning qurg'oq rayonlarida xech qanaqa foydasi yo'q. Xolbuki, ayni shu rayonlar oziq-ovqat maxsulotlarining tanqisligidan

hammadan ortiqroqch azob chekadi. Ammo so'nggi paytlarda bu yo'nalishda ham ancha-muncha umidbaxsh natijalar ko'rinib qoldi. Amerika va Polsha tadqiqotchilari sorgo ekinini yaxshilash ustila ancha muvaffaqiyatlarga erishdilar - sorgo Xindiston. Afrika va Xitoyning yarim qurg'oq rayonlarida asosiy oziq-ovqat maxsuloti xisoblanadi va shu joylarda sorgo ekiladigan maydon 48 million gektarni tashkil qiladi. Bu singdirish oziq-ovqat masalasidagi axvolni ancha-muncha yaxshilashi mumkin. Lekin eng muhimi shundaki, sorgo qurg'oqchilikka chidamli serxosil makkajuxori navlarini yetishtirish uchun zarur bo'lgan genlar manbai sifatida xizmat qilishi mumkin.

Biotexnologiya begona o'tlarga va o'simliklardagi kasalliklarga chidamli bo'lgan unumdor chorva mollarini tezkorlik bilan yetishtirishga yordam beradi. Ularning o'sishini tezlashtiradi, azot to'plashga va shu yo'l bilan mineral o'g'itlardan foydalanishdan voz kechishga ko'maklashadi. Ammo biotexnologiyaga bu qadar umidvorlik bilan qarar ekanmiz. Moxiyatdan yangi bir "zangori inqilob"ni unga bog'lik qilib quyar ekanmiz, shuni nazarda tutmoq kerakki, ko'p xollarda bu bugungi emas. Ertangi muammolarni xal qilishda qul keladi. Bundan tashqari. muvaffaqiyatlar bilan birga qarshimizda yangi muammolar ham ko'ndalang bo'ladi. Bugun rivojlangan mamlakatlarning chorvachiligida ancha-muncha keng qo'llanilayotgan o'sish garmoni go'shtning tashqi ko'rinishini bo'zadi, uni har xil buyoqlarga buyashga majbur qiladi, bu buyoqlar hamma vaqt ham bezarar bulavermaydi. Bundan tashqari u odamning salomatligiga ham zarar yetkazishi mumkin. Klonirovaniye bobidagi muvaffaqiyatlar (Dolli) perotsidlarga chidamliligini oshirish bu ekinlardan foydalanish xududlarini kengaytirishga imkon beradi, bu esa tevarak-atrofdagi o'simliklar dunyosining yanada ko'proq zaharlanishiga olib keladi. Bizning mamlakatimizda qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda "dust"ning keng qo'llanilishi yovvoyi hayvonlar ning xovo'zlarning ommaviy zaharlanishiga va ular orqali odamlarning ham zararlanishiga sabab bo'ladi. Natijada, undan foydalanishdan voz kechishga to'g'ri keldi.

Ekologlarning fikricha. biotexnologiya insonning ekologik agressivligini kuchaytirishga olib keladi. Agar biotexnologiya yordamida zaharlangan suvda bemalol yashay oladigan baliqni yaratish mumkin bo'lsa, suv va xavoning ifloslanishiga qarshi kurashmoqning nima zarurati bor? Agar o'zgaruvchan muxitga moslasha oladigan o'simlik navini yaratish mumkin bo'lsa, fermer tabiat bilan hamkorlik qilib nima qiladi? Biotexnologiya bo'lsa, fermer tabiat bilan hamkorlik qilib nima qiladi? Biotexnologiya natijalaridan keng foydalanish mukarraf tarzda biologik rang-baranglikning kamayib ketishiga, tabiiy o'simliklar va jonivorlarning yo'q bo'lib ketishiga. ularning o'rnini esa suniy ravishda yaratilganlari eg'allashiga olib keladi. Bunaqa ishlarga tabiatning javobi qanday bo'lishini butun aytib berish juda qiyin.

Biotexnologik revolyutsiya davlatlarning o'zaro aloqasida, mamlakatlarning ichki axvolida qanday tasir ko'rsatishi mumkinligi masalasida ham to'la aniqlik yo'q. Hozir Biotexnologik dori-darmonlarni ishlab chiqarish yirik ximiyaviy korporatsiyalar qo'lida markazlashyapti. Jahonda bunday maxsulotni ishlab chiqarish va eksport qilishda eng yirik davlat bo'letish AQShda bu muammolar bilan, asosan 7 ta kompaniya shug'ullanadi. Bular "Maykogen"."Kolgene". "Amerikenbrides servis" va boshqalardir. Ularning har qaysisi o'zi ishlab chiqarayotgan narsaning sirini qattiq saqlaydi, ularning orasida murosasiz raqobat kurashi boradi, bu kurash davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham keskinlashtirmay qo'ymaydi. Korporatsiyalar o'zlarining maxsulotlari uchun rivojlanayotgan mamlakatlardan juda katta haq talab qilishadi, ularning esa bunaqa katta yo'llari yo'q. Bularning bari korporativ manfaatlari xalqaro manfaatlardan yuqoriroq quyishga olib keladi. Binobarin, ularda xalqaro keskinlik manbalari mavjud deb xisoblasa bo'ladi.

3.2 Ekologik muammolarning yechimi yo'lidagi ilmiy izlanishllar

Kelajakda biotexnologiya nafaqat qishloq fermerlarining maxsulotini ko'paytiradi, balki sintetik ovqatlanish maxsulotlarini ham yaratadi. Bunday misolllar bugunning o'zidayoq yetarli darajada bor: biz bugun iste'mol qilayotgan saryog'ning aslini surishtirsangiz uning xech qancha saryog'ligi qolmagan, biz

ichayotgan kaxva olimning laboratoriyasida bino bo'lgan va x.k. va b.k. Bularning bari muayyan vaziyatlarda milliy iqtisodiyotlar sturukturasini ham. millionlab odamlarning an'anaviy faoliyatlarining ko'pgina turlarini luzumsiz bir narsaga aylantirib qo'yadi. bu esa ishsizlikning kuchayishiga olib keladi, olib kelganda ham birinchi navbatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi soxasidagi ishsizlikni kuchaytiradi. Bu xolda millionlab odamlar nima bilan shug'ullanishadi? Bunday vaziyatda bu odamlar o'zlarini qanday tushuniSharqin? Hozircha bu savollarga javob yo'q.

Biotexnologiyaning rivojlanishi shubxasiz AQSh, Yaponiya va Ovropa hamjamiyati mamlakatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytiradi, ulapning hammasi bugun o'z qishloq xo'jaliklarini o'zlari moliyaviy mablag' bilan taminlaydi, negaki. axolini o'z mamlakati yetishtirilgan oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash - hamma joyda milliy xavfsizlikni taminlovchi eng asosiy omili xisoblanadi. Bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligining qudratli xomiylari bor. Biotexnologiya bilan shug'ullannuvchi korporatsiyalar tomonidan shunday taxdid tug'ilganini xis qilishda bilan bu xomiylar o'z mamlakatlarining xukumatlariga tazyiq ko'rsata boshlaydilar va oxir-pirovardida ularni vaziyatni tuzatadigan chora-tadbirlar ko'rishga majbur qiladi. Bu esa jahon miqyosidagi O'zaro munosabatlarni yanada keskinlashtiradi.

Biotexnologiya muaffaqiyatlariga mayda dehqon xo'jaliklari va yirik fermerlar boshqa-boshqa ko'z qaraydilar. Yirik fermerlar. Albatta, fermer xo'jaliklariga kelsak, ular bugunning o'zidayoq xo'jalikni xonavayron qiladigan yutuqlarga qarshi bosh ko'tarishmokda. AQSh da qilingan xisob-kitoblarga ko'ra, agar O'stiradigan buqa garmoni hamma joyda joriy qilinsa, mamlakatdagi sut yetkazib beradigan fermalarning yarmi keraksiz bo'lib qolar ekan.

Biotexnologiyaning muvaffaqiyatlariga davlatlarning o'zlari ham har xil munosabatda bo'lishadi. Oziq-ovqat maxsulotlarini import qiladigan mamlakatlar uning yutuqlaridan bajonudil foydalanadilar. Ortiqcha oziq-ovqati bor mamlakatlar biotexnologiya vajidan bozorlaridan maxrum bo'lib qolishlari mumkin. Rivojlanayottan mamlakatlarda biotexnologiya keltiradigan yo'qotishlar ham

foydalar ham aralash-quralash tarzda betartib namoish bo'lishi mumkin. Xitoy, Xindiston, Vetnam kabi mamlakatlarning biotexnologiya muammolari bilan jiddiy shug'ullanayotgani bejis emas. To'g'ri, xozircha ular bu ishlarni laboratoriya tadqiqotlari darajasida olib borishyapti. Negaki, ularning natijalarini amalda tadbiq qilmoq uchun juda katta miqdorda pul kerak, bu davlatlarda esa bunaqa pul yo'q, bundan tashqari ular bu ish bilan shug'ullangani yuksak malakali qadrlar ham yetishmaydi.

Biotexnologiyaning rivoji hozirning o'zida biologik imperiyalizm kabi butunlay yangi xodisani maydonga keltirdi. Kimyoviy korporatsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlardan arzon-garov narxlarda genetik xom-ashyo sotib olishadi, ularga esa juda qimmat narxlardagi kimyoviy maxsulotlar taklif qilinadi. Rivojlangan mamlakatlar uchun kakao, palma yog'i kabi va boshqa narsalar o'rniga ularning yasama nusxalarini ommaviy tarzda ishlab chiqarish va eksport qilish bu mamlakatlarning iqtisodiyotiga jiddiy putur yetkazadi. ommaviy ishsizlikni tug'diradi. Masalan: sun'iy kauchuk ishlab chiqarish bugungi kunda Malayziyada kauchukli daraxtning sharbatini yig'ish bilan shug'ullanuvchi 16 million odamni ishdan maxrum etishi mumkin. Bu xodisa xaqiqatdan ham voqe bo'ladigan bo'lsa, bu mamlakatdan siyosiy barqarorlikni kunduzi chiroq yoqib ham topib bo'lmay qoladi.

Shunday qilib biotexnologik revolyutsiya ochlik va qashshoqlik degan global muammoni bir vaqtning o'zida ham yengillashtiradi, ham murakkablashtiradi. Bu ko'pgina mamlakatlarda yaxshi tushunishadi. Ammo shunga qaramay, jahonning ko'pgina mintaqalarda ochlik masalasi shunaqa keskin darajada ko'ndalang bo'lib turibiki, har qancha nuqsonlari va kemptiklariga qaramay. biotexnologiya bu muammoni xal qilishda eng jozibador yechim bo'lib ko'rniyapti. Shunday bo'lgach u bundan keyin ham rivojlanib borishiga shak-shubxa yo'q. Ammo boshqa bir savol bor - jahon hamjamiyati uning oqibatlarini bartaraf qilishga qodirmikin?

Jahon qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning unumdorligini oshirish; shu jumladan, xozirgi hamon texnikasi va fanning yutuqlari yordamida oshirish juda muhim narsa. Lekin u jahon miqiyosidagi oziq-ovqat muammosini xal qilishning

yagona imkoniyati emas. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki. ochlik jahondagi ko'pgina mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi oqibatida maydonga keladigan xodisadir. Och mamlakatlarning o'z-o'zini oziq-ovqat bilan taminlashiga erishish bu muammoni xal qilishning birdan-bir va iqtisodiy jixatdan manfaatli bo'lgan yagona yo'li emas. Jahon mintaqalarining ko'pchiligida tabiiy-iqlim sharoitlari qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun mutlaqo qulay emas. Bunday mintaqalarda oziq-ovqat maxsulotlarini import qilish maqsadga muvofiq ish bo'lardi. Ammo buning uchun davlat va uning fuqarolari bozordagi oziq-ovqat maxsulotlarini harid qila bilmoqlari kerak. Afsuski, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu narsa hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ommaviy ishsizlik, inflyatsiyaning yuqori darajasi odamlari to'yib ovqat yemaydigan mamlakatlarda millionlab insonlarni juda nochor axvolga solib qo'ygan.

Demak bugungi kundagi har qanday ilmiy izlanishlar ekologik xavzilikni hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlamog'i kerak.

Xulosa

Barqaror rivojlanish inson va jamiyat hayotini tashkil etishning ratsional yechimi bo'lib, biosferada yuzaga kelgan ekologik vaziyat muammolarini kishilik jamiyatining barcha jihatlarini bilan har tomonlama xal etish kerakligining yangi yo'llarini izlashga olib kelmoqda. Barqaror rivojlanish uchun jamiyat kishilari ongli ravishda ekologik vazifalarni har kuni, har bir bosqichda amalga oshirishni talab qiladi, ya'ni yaratilgan texnologiya muhitga o'zining ijobiy ta'sir etishi yoki unga salbiy ta'sir etmasligi kerak, shundagina insonlar bexavotir yashaydilar, mehnat qiladilar.

Barqaror rivojlanishning ekologik jixati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- hozirgi va kelgusi avlodlar uchun shunday real imkoniyatlarni saqlab qolmoq kerakki, ular bu imkoniyatlar yorlamida o'zlarining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondira olsinlar;
- ekologik xavfsizlikni ta'minlash, kam chiqindili ishlab chiqarishni rivojlantirish, yopik sikl bo'yicha chiqindisiz texnologiyalarga o'tish,
- biotexnikaning yangi manbalaridan foydalanishga o'tish,
- tabiatni asrashning ma'muriy, iqtisodiy va xuquqiy usullarini mukammallashtirish,
- biologik xilma-xillikni saqlab qolish, ekologik-tarbiyaviy ishlarni ekologik-axloqiy kodeksni ishlab chiqish va uning talablariga rioya qilish.

Shu talablardan kelib chiqqan holda mazkur BMI da ekologik xavsizlikning jamiyat barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati hamda uning yo'llari atroflicha o'rganildi.

Bizning markur mavzu yuzasidan olib borgan izlanishlarimizdan shunday xulosa qilish mumkin: tabiatdagi barcha o'zgarishlarning sababchisi inson ekan demak, uning yaxshilashga, asrab avaylashga ham u ma'sul. Bunda o'sib kelayotgan kelajak avlodga ekologik ong va madaniyatni shakillantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I. A. XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekistan. 1997 y.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. O'zbekiston. 1998 y.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... Toshkent. 1997
4. O'zbekiston respublikasi «Qizil kitobi», T. 1998
5. Ziyomuhamedov B. Ekologiya va madaniyat T. 1997 y.
6. Zokirov T.S. Paxta dalasi ekologiyasi. T. Mehnat 1991 y.
7. Beknazov R.U., Novikov YU.P. Oxrana prirody. T. O'qituvchi. 1996 y.
8. Mustafayev S. O'simliklar bioekologiyasi. T. 1993 y.
9. Muhammadjonov M.V., SHarofuddinova F.X. Oxrana i ratsionalnoye ispolzovaniye prirodnnykh resursov v O'zbekistane. «Fan» 1998 y.
10. Novikov YU.V. Priroda i chelovek. M., Prosvesheniye 1991 y.
11. Oxrana okrujayushey prirodnoy sredy i ispolzovaniye prirodnnykh resursov Respubliki O'zbekistana T. O'qituvchi. 1993 y.
12. To'xtayev A.S. Ekologiya. T. O'qituvchi. 1998 y.
13. SHodimetov YU. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. O'qituvchi. 1994 y.
14. To'xtaev A., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. T. «O'qituvchi», 1984
15. Muhammedov A. Tabiatni muhofaza qilish va ekologiya. T. 1986
16. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. «O'qituvchi», 1994
17. To'xtaev A. Ekologiya. T. «O'qituvchi», 1998
18. To'xtaev A., Hamidov A. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish. T. «O'qituvchi», 1984
19. Muhammedov A. Tabiatni muhofaza qilish va ekologiya. T. 1986
20. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. «O'qituvchi», 1994
21. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. T. «O'qituvchi», 1994
22. Ismayilov A., Axadov R. Ekologik ta'lim tarbiya. T. «O'qituvchi», 1994
23. Stadniskiy TV., Radionov A.I. Ekologiya . Moskva. «Viusshaya shkola», 1998
24. Holmuminov J. Ekologiya va qonun. «Adolat», T. 2000
25. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T. «O'zbekiston», 2003.
26. S.B.Belov. Oxrana okrujayuo`ey sredq. M.: Vqsshaya shkola, 1991.- 147s.
27. P.Baratov. Tabiatni mu`ofaza qilish va o`zgartirish. Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 176 s.
28. D.P.Nikitin. Yu.P.Novikov Okrujayuo`aya sreda i chelovek. M.: Vqsshaya shkola 1980.-240s.
29. Yu.V.Novikov, R.U.Beknazov. Oxrana okrujayushey sredq Toshkent: Izd.

- poligrafoboedenie im. Ibn Sina. 1992.-201s.
- 30.V.A.Stepanov. Oxrana prirodo - tekst lektsiy. Leningrad:1983.- 198s.
- 31.Yu.V. Novikov. Priroda i chelovek. M.: Prosveo`enie, 1991.-188s.
- 32.N.Jabborov. Kimyo va atrof muhit. O`quv qo`llanma.Toshkent: O`qituvchi, 1992.-154s.
- 33.A.B.Losev. Sotsialnaya ekologiyaG` Uchebnoe posobie. M.: Izd.Prosveo`enie, 1998.- 222s.
- 34.T.A. Alimov, A.A.Rafiqov. Ekologik xatolik saboqlari. T.: O`zbekiston, 1991.-176s.
- 35.O.Abdullaev, Z.Toshmatov. O`zbekiston ekologiyasi bugun va yer taga.T.: O`z. R. FA Fan nashiryoti, 1992.-99s.
- 36.Yu.Shadimetov. Ishtimoiy ekologiyaga kirish. T.:O`qituvchi, 1994.- 175s.
- 37.A.Otaboev, M.Nabiev. Inson va biosfera. T.:O`qituvchi, 1995. 76s.
- 38.S.S.Saidaminov. Osnovi oxrani okrujayushey sredi T.: O`qituvchi, 1989.- 139s.
- 39.Ch.P.Laptev. Oxrana atmosfer i. Tomsk: Izd. Tomskogo Univyer siteta. - 1987. – 254s.
40. G.V.Stadnitskiy. Ekologiya. M.: SP Ximizdat- 1999. – 201s.
- 41.A.K.Brotskiy. Kratkiy ko`rs obo`ey ekologii. M.: SP Ximizdat, 2000y. – 96s.
- 42.Valukonis G., Murodov Sh. Osnovi ekologii. Mehnat 2001y.
- 43.R.Egambyer diev, R. Eshchanov.Ekologiya asoslari.T. Zar qalam.2004-63 b

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz